

POSTDA



Gazeta 1930-yil 12-maydan
chiqa boshlagan

НА ПОСТЫ AT THE POST

O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

«O'ZGARISH»DAGI KATTA O'ZGARISHLAR

insonlarning yuzidagi
tabassumda, so'zidagi
shukronalikda bo'y
ko'rsatmoqda

Bugun yurtimizning qay
bir go'shasida bo'lmang,
yangilanish va bunyodkorlik
nafasini tuyasiz. Xususan,
inson qadri ulug'langan,
«mahallabay» ishlash tizimi
hayotimizning har bir
bo'g'iniga kirib borgan ayni
davrda, poytaxtimizning
Sergeli tumanidagi
«O'zgarish» mahallasi
tizimli islohotlarning yorqin
namunasiga aylandi.

(Davomi 3-betda.)



DUNYONING ENG IQTIDORLI YOSH KIMYOGARLARI TOSHKENTDA

Poytaxtda 10–19-iyul kunlari bo'lib o'tayotgan 58-xalqaro kimyo olimpiadasi (IChO 2026) Markaziy Osiyo tarixida ilk bor O'zbekiston mezbonligida tashkil etilmoqda. Dunyoning eng nufuzli fan musobaqalaridan biri hisoblangan olimpiadada 90 dan ortiq mamlakat delegatsiyalari ishtirok etmoqda. Ular nazariy va amaliy sinovlarda o'z bilim va ko'nikmalarini namoyish etadi, shu bilan birga mamlakatimizning ilmiy salohiyati va madaniy merosi bilan tanishish imkoniga ega bo'lmoqda. Mutaxassislar fikricha, bunday yirik xalqaro anjumaning O'zbekistonda o'tkazilishi mamlakatning ta'lim va ilm-fan sohasidagi nufuzi tobora ortib borayotganini ko'rsatadi.



ABITURIYENTLAR UCHUN TEST SINOVLARI BOSHLANDI

14-iyuldan respublika bo'ylab oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat bosqichiga qabul bo'yicha test sinovlari boshlandi. Imtihonlar mamlakatning barcha hududlarida maxsus tayyorlangan pavilon va yirik binolarda tashkil etilgan bo'lib, jarayonlarning ochiqqligi hamda shaffofligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Abiturientlar testga faqat shaxsni tasdiqlovchi hujjat va ruxsatnoma asosida kiritilmoqda, jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari uchun kuza-tuv imkoniyatlari ham yaratilgan. Test sinovlari iyul–avgust oylari davomida bosqichma-bosqich o'tkaziladi.



671 NAFAR HAYDOVCHI JARIMA BALLARI CHEGARASIDAN OSHDI

Yo'l harakati xavfsizligi xizmati ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatda jarima ballari tizimi joriy etilganidan buyon 399 ming 269 nafar fuqaroga ayrim qoidabuzarliklar uchun «ma'muriy ogohlantirish» chorasini qo'llanilgan. Shu bilan birga, 671 nafar haydovchi 12 ballik me'yordan yuqori jarima ballarini to'plagan. Amaldagi tartibga muvofiq, 12 balldan oshgan haydovchilar kamida olti oy muddatga transport vositasini boshqarish huquqidan mahrum etilishi mumkin. Mutaxassislar fikricha, mazkur tizim jazoni kuchaytirishdan ko'ra, haydovchilarni yo'l harakati qoidalariga qat'iy rioya qilishga undash va yo'l-transport hodisalarini kamaytirishga xizmat qiladi.



Musulmon ZIYO

OCHIQ TIZIM — XAVFSIZ JAMIYAT

Ichki ishlar vazirligi tomonidan «Ochiqlik va xalq bilan muloqot – asosiy mezon: Ichki ishlar organlari faoliyati yuzasidan joriy yilning birinchi yarim yilligi bo'yicha tahliliy hisobot» mavzusida ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirokida matbuot anjumani tashkil etildi.

Anjumanda jinoyatchilikning oldini olish borasidagi yangi yondashuvlar, profilaktika tizimini takomillashtirish, sohada raqamli texnologiyalarni joriy etish, yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash, xotin-qizlar va voyaga yetmagan yoshlarni tazyiq-zo'ravonlikdan

asrash borasida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar atroflicha tahlil qilindi. Ichki ishlar vaziri o'rinbosari, polkovnik Ramazon Ashropov hamda mas'ul rahbarlar jurnalist va blogerlarning mavzu doirasidagi savollariga atroflicha javob berdilar.



MATBUOT ANJUMANIDA KELTIRILGAN FAKT VA RAQAMLAR:



2026-yilning 6 oyida mamlakatimizdagi **5 778 ta mahallada** jinoyat sodir etilmadi. Bu yurtimizdagi jami mahallalarning **64 foizi**ni tashkil etadi. Shu bilan birga, jinoyat qayd etilgan mahallalarning **2 738 tasi (30,4 %)** «sariq», **476 tasi (5,3 %)** «qizil» toifaga kiritilgan.



2026-yilning 6 oyida Ichki ishlar organlarining tezkor tuzilmalar va saf bo'linmalari tomonidan tergov va sud organlaridan yashiringan **5 010 nafar shaxs qo'lga olinib**, jazo muqarrarlari ta'minlandi. IIO xodimlari tomonidan **2 633 nafar** bedarak yo'qolgan shaxs topildi.

2026-yilning 6 oyida giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasi bilan bog'liq holatlar yuzasidan **8 653 ta** jinoyat ishi qo'zg'atilib, jinoiy guruh va shaxslardan **2 tonna 733 kg** giyohvandlik vositalari, shundan **52 kg dan** ortiq sintetik moddalar va **2 mln 651 ming dona** kuchli ta'sir qiluvchi dorilar olindi.



IIV tizimida xodimlar bilan bog'liq salbiy holatlarning **75 foizi** Komplayens xizmati tomonidan aniqlangan. Xodimlarning no'rin xatti-harakatlariga har doim huquqiy baho berilib, tegishli chora ko'riladi. Joriy yilning birinchi yarim yilligi bo'yicha korrupsion holatlarning oldini olishda qat'iy kurashgan **36 nafar xodim rag'batlantirilgan.**



2026-yilning 6 oyida ichki ishlar organlariga **200 000 dan ortiq** murojaatlar kelib tushgan bo'lib, hisobot davrida ko'rib chiqilgan murojaatlarning **87 foizi** qanoatlantirilgan. Murojaatlarning **83 foizi** quyi tizim bilan bog'liq.



2026-yilning o'zida **18 nafar** xodim xizmat vazifasini bajarish chog'ida vafot etgan. **78 nafar** xodim turli xavfli vaziyatlarni bartaraf qilish jarayonida jarohatlangan.

HUDUDLARDAN LAVHALAR



Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasi tashabbusi bilan tashkil etilgan «Xavfsiz oila» tadbirining ikkinchi bosqichiga start berildi.



Yoshlarning bandligi rahbarlar nazoratida: Navoiy viloyati IIB rahbariyati tomonidan sport obyektlari o'rganildi.



Namanganda test sinovlari uchun yaratilgan sharoitlar va xavfsizlik choralari o'rganildi.



«O'ZGARISH»DAGI KATTA O'ZGARISHLAR



(Boshlanishi 1-betda.)

Davlatimiz rahbarining yaqinda ushbu mahallaga tashrif buyurgani ham bejiz emas. Zero, olib borilayotgan oqilona siyosatning bosh maqsadi – xalqni rozi qilish, mahallalarni obod va xavfsiz maskanga aylantirishdir.

Xo'sh, «O'zgarish» qanday qilib qisqa fursatda jinoyatchilikdan butkul xoli, tinch va obod hududga aylana oldi? Bu muvaffaqiyat siri mahalla ahlining hamjihatligida, «yettilik» tizimining sa'y-harakatlarida mujassam. 2004-yilda tashkil topgan, bugun 20 gektarga yaqin maydonda 1620 ta fayzli xonadonni birlashtirgan bu maskan ahli ahil-inoqlikda yashab kelmoqda.

– Mahallamizga muhtaram Prezidentimizning tashrif buyurganlari tarixiy voqea bo'ldi, – deydi mahalla raisi Dono Miraliyeva hayajon bilan. – Uchrashuv-



dagi samimiy suhbat, davlatimiz rahbariga mahalladoshlarimiz nomidan yaratilgan sharoitlar uchun minnatdorlik bildirish baxti menga nasib etganidan bag'oyat xursandman. Bugun hudud-da bolalar o'yingohlari, ko'rkam bog', zamonaviy sport inshootlari va nuroniylar maskani aholi ixtiyorida. Bunday yuksak e'tiborga biz mehnatimiz, fidoyiligimiz va yangi tashabbuslar bilan javob berishimiz lozim.

Mahalla raisining ushbu so'zlari bugun «yettilik» tizimini yanada faolroq ishlashga, 6700 nafar aholining quvonch-u tashvishiga kamarbasta bo'lishga undamoqda.

Mahalla hayotidagi eng katta yutuqlardan biri bandlik sohasida kuzatildi. Tizimli sa'y-harakatlar va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash natijasida ishsizlik muammosi to'liq hal etildi. «Ijtimoiy reyestr»dagi 48 ta oila hamda

112 nafar nogironligi bo'lgan shaxs doimiy e'tiborda.

Xotin-qizlar va yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash borasida ham salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. «Ayollar daftari»ga kiritilgan 148 nafar xotin-qizning bandligini ta'minlash, salomatligini tiklash choralari ko'rilmogda.

Iqtisodiy va madaniy yuksalish mahalla chiroyiga chiroy qo'shmoqda. Bugun 30 o'rinni shingam kutubxona va sport obyektlari mahalla ahli, ayniqsa, yoshlar bilan gavjum. Iqtisodiy faollikni oshirishda esa 56 ta kichik biznes subyekti muhim rol o'ynamoqda.

Eng muhimi, aholining huquqiy madaniyati yuksalgani va profilaktika inspektori, katta leytenant Aziz Bo'riyevning fidokorona xizmatlari tufayli yil boshidan buyon hududda birorta ham jinoyat sodir etilmadi. Mahalla haq-li ravishda «yashil» toifadan joy oldi.

Profilaktik ishlarning o'z vaqtida, tizimli olib borilgani mahallada osoyishtalik va ahillik qo'rg'onini mustahkamladi. Bugun «O'zgarish» mahallasi tun-u kun bexavotir va xotirjam yashash mumkin bo'lgan xavfsiz maskandir.

Muxtasar aytganda, Prezidentimiz tashrifidan so'ng yangicha shijoat bilan yashayotgan «O'zgarish» mahallasida islohotlar faqat qog'ozda emas, balki insonlarning yuzidagi tabassumda, xonadonlardagi barakada va osoyishta kunlarda bo'y ko'rsatmoqda. Nomiga munosib ravishda chin ma'noda bemisl o'zgarishlarga yuz tutgan bu maskan yurtimizdagi boshqa mahallalar uchun haqiqiy namunadir.

Abror POYONOV,
katta mutaxassis-muxbir,
katta serjant.

Abu KENJAYEV olgan suratlar.

Toshkent shahri.

Xavfsiz va sog'lom yurt

MAS'ULIYATNI HIS ETIB

Ayni kunlarda mamlakatimizda «Xavfsiz va sog'lom yurt» keng ko'lamli tezkor-profilaktik tadbirlari izchil davom etmoqda.

Mazkur tadbirlar doirasida jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquqbuzarliklarning oldini olish hamda sodir etilgan jinoyatlarni «issiq izida» fosh etishda yuqori natija ko'rsatgan xodimlar munosib rag'batlantirilmoqda.

Xususan, Ichki ishlar vazirining o'rinbosari – Transport va turizm obyektlarida xavfsizlikni ta'minlash departamenti boshlig'i, general-mayor Bahodir Mirzarahimovning tegishli buyrug'iga asosan, Metropolitenda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi xodimlari – kapitan Abror G'ulomjonov, safdorlar Nurlibek Aytbayev hamda Ibrohim Tojiqulovlar munosib rag'batlantirildi.

Dilafroz OBLOQULOVA,
T va TOXTD MXTB safdor xodimi.

* * *

Toshkent shahar Shayxontohur tuman IIOFMB HPB Kiberprofilaktika bo'limi xodimlari tomonidan ham mazkur



oylik doirasida keng qamrovli profilaktik tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, bugungi kunda dolzarb muammoga aylanib borayotgan axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar, xususan, kiberjinoyatchilik va internet orqali sodir etilayotgan firibgarlik

holatlarning oldini olishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Nilufar SUVONOVA,
leytenant.

* * *

Xorazm viloyati IIB xodimlari tomonidan belgilangan reja asosida 59 nafar shaxsning yashash manzili qonunchilikda belgilangan tartibda ko'zdan kechirildi. O'rganishlar natijasida 49 nafar fuqaro noqonuniy buyum va ashyolarni saqlab kelayotgani aniqlandi. Tekshiruvlar davomida 36 nafar shaxsning harakatlarida jinoyat tarkibi mavjudligi aniqlanib, holatlar yuzasidan tegishli protsessual choralari ko'rildi. Yana 13 nafar fuqaroning xatti-harakatlarida ma'muriy huquqbuzarlik alomatlarini aniqlanib, ularga nisbatan belgilangan tartibda ma'muriy hujjatlar rasmiylashtirildi.

Tezkor tadbirlar natijasida 7 dona sovuq qurol sifatida ishlatilishi mumkin bo'lgan buyum, 3 kilogramm 934 gramm giyohvandlik vositalari, 66 tup giyohvandlik o'simligi, 7 dona ov quroli, 77 dona patron, 10 dona pnevmatik qurol hamda boshqa turli noqonuniy buyumlar ashyoviy dalil sifatida olindi. Har bir noqonuniy qurol yoki giyohvandlik vositasi ortida inson hayoti va jamiyat xavfsizligiga tahdid yashiringan. Shu nuqtayi nazardan bunday tezkor tadbirlarning ahamiyati faqat aniqlangan holatlar soni bilan emas, balki oldi olingan ehtimoliy jinoyatlar, hayoti saqlab qolgan insonlar taqdiri va osoyishtalik bilan ham baholanadi.

Zokir ISMOILOV,
Xorazm viloyati IIB Axborot xizmati
boshlig'i, podpolkovnik.

YANGI AVLOD KADRLARINI TAYYORLASH –

Keyingi yillarda ichki ishlar organlari faoliyati mutlaqo yangicha mazmun-mohiyat kasb etdi. Tizim nafaqat huquq-tartibotni ta'minlaydigan, balki kun-u tun xalq manfaatlariga xizmat qiladigan, fuqarolarning dard-u tashvishi bilan yashaydigan xalqchil tuzilma sifatida shakllandi.

Muhtaram Prezidentimiz rahbarligida sohada amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar davrida tizim uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash masalasi ham ustuvor ahamiyat kasb etdi. IIV Akademiyasi faoliyati tubdan isloh qilinib, o'quv jarayoniga ta'limning zamonaviy yondashuvlari tatbiq etildi.

Davlatimiz rahbarining 2017-yil iyun oyida mazkur ta'lim muassasasiga tashrifi, tom ma'noda, Akademiya hayotida muhim o'zgarishlarni boshlab berdi. Tashrif chog'ida soha uchun yuqori malakali, professional kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish borasida tegishli ko'rsatmalar berildi, qator ustuvor vazifalar belgilab olindi.

Jahon andozalariga mos

Prezidentimizning ichki ishlar organlari uchun professional kadrlar tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etishga qaratilgan qarori asosida Akademiyada jahon standartlariga to'la javob beradigan, bakalavriat va magistraturadan iborat ikki bosqichli ta'lim yo'lga qo'yildi.

Bakalavriat bosqichida mutlaqo yangi yondashuvlar, xususan, hududiy ichki ishlar organlari bilan hamkorlikda onlayn master-klass (mahorat darslari) va bazaviy amaliyot mashg'ulotlarini tashkil etish, o'quv tezkor-tergov guruhlarining hodisa joylariga chiqishi, xorijiy mutaxassislarni mashg'ulotlarga jalb qilish, kursantlarni xorijiy turdosh oliy ta'lim muassasalariga tajriba almashish uchun yuborish kabi ilg'or mexanizmlar tatbiq qilindi.

O'quv jarayonini ichki ishlar organlari faoliyati bilan uzviy holda tashkil etish, nazariya va amaliyot uyg'unligini yanada kuchaytirish maqsadida dual ta'limga o'tilib, kursantlar xodim yordamchisi lavozimida amaliyotga jalb etila boshlandi.



Prezidentning «Ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori bilan kunduzgi ta'limda ixtisoslik yo'nalishlari ko'paytirilib, o'qish muddati uch yil etib belgilandi. Akademiyaning ilmiy salohi-

yatini yuksaltirish maqsadida yuridik fanlar ixtisosliklari bo'yicha ilmiy darajalar beruvchi kengashlar tashkil qilindi. O'quv dargohida kursant va tinglovchilarning zamon talablari darajasida bilim olishi, mustaqil izlanishi, o'z iqtidorini ro'yobga chiqarishi uchun barcha sharoitlar yaratildi.



Rustam XATAMOV,
IIV Akademiyasi boshlig'i,
polkovnik,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa
doktori, dotsent.

Yangi tizim kursantlarning kelgusi xizmat faoliyatiga moslashishini ta'minlash, hududlarning kriminogen vaziyatini tahlil qilish, nostandart vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish, aholi bilan yaqin hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini shakllantirishda muhim omil bo'lmoqda.

Kunduzgi ta'lim bakalavriatida nafaqat idoraviy akademik litseylar bitiruvchilari va ichki ishlar organi xodimlari, balki fuqarolik ta'lim muassasalarini tamomlagan yoshlar ham o'qishga kirishi uchun imkoniyat yaratildi. Bundan tashqari, Akademiyaning xalqaro miqyosdagi nufuzini yuksaltirish maqsadida xorijiy davlatlar ichki ishlar organlari (politsiya) kadrlarini o'qitish yo'lga qo'yildi.

Boshqaruv kadrlari – samaradorlik omili

Yangidan tashkil etilgan magistratura faoliyati ichki ishlar organlari uchun zamonaviy boshqaruv kadrlarini tayyorlashga yo'naltirildi. Magistraturada dastlab «tashkiliy-taktik boshqaruv» va

«tashkiliy-strategik boshqaruv», keyinchalik «ilmiy-pedagogik faoliyat» mutaxassisliklari tashkil qilinib, modulli o'qitish tizimi yo'lga qo'yildi.

Mashg'ulotlarga davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari vakillari, Ichki ishlar vaziri o'rinbosarlari, yetakchi oliy ta'lim muassasalaridan tajribali mutaxassislar jalb qilinib, o'quv dasturlariga geosiyosat, boshqaruvda tizimli tahlil va qaror qabul qilish asoslari, diplomatik protokol va etiket, menejmentning zamonaviy usullari singari yangi fanlar kiritildi.

Bundan tashqari, tinglovchilarning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasida rahbarlik mahoratini oshirishi, xorijiy davlatlarga borib, ilg'or tajribalarni o'rganishi, parlamentda qonun muhokamalarida bevosita ishtirok etishi yo'lga qo'yildi.

Ilmiy salohiyat yuksalmoqda

Keyingi yillarda Akademiyaning ilmiy faoliyati tubdan isloh qilindi. Oliy ta'limdan keyingi ta'limda ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni maqsadli tayyorlashning samarali tizimi yaratildi. Tadqiqot



USTUVOR VAZIFA

ishlarining sifati va ilmiy-amaliy ahamiyatini oshirish maqsadida dissertatsiya mavzulari huquqni qo'llash amaliyoti hamda ichki ishlar organlari tizimidagi dolzarb muammolarga yo'naltirildi.

Akademiyaning Axborot-resurs markazida boy elektron ilmiy baza yaratilib, «Huquqiy olam», «Tezkor-qidiruv huquqi», «Huquqni muhofaza qilish faoliyatida ta'lim, fan va innovatsiyalar» ilmiy jurnallari ta'sis etildi. Bundan tashqari, ustoz-shogirdlik an'analari asosida har bir kafedra qoshida ilmiy to'garaklar tashkil qilindi. Ilmiy-tadqiqot faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan islohotlar natijasida o'quv dargohining ilmiy salohiyati keyingi uch yilda 73 foizga ko'tarildi.

Jinoyatchilikni jilovlashda ilmiy yondashuv

Akademiyada Ichki ishlar organlari faoliyatini uslubiy ta'minlash markazining tashkil qilingani kriminogen vaziyat bilan bog'liq muammolarni manzilli hal etishda muhim ahamiyat kasb etdi. Yangi tizim asosida jinoyatchilik tendensiyalarini joylarga chiqqan holda tahlil va prognoz qilish, uning omillarini «ilmiy diagnoz» asosida bartaraf etish mexanizmlari yo'lga qo'yildi. Qisqa fursatda respublikamizning kriminogen vaziyati murakkab hududlari bo'yicha 100 ga yaqin metodik qo'llanmalar yaratilib, amaliyotga joriy qilindi.

Shu bilan birga, tajribali professor-o'qituvchilarni mahallalarga jalb etgan holda huquqbuzarliklarning asl omillarini o'rganish, ilmiy asoslantirilgan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish, joylardagi «mahalla yettligi» vakillariga uslubiy yordam ko'rsatish tizimi yaratildi.

Ta'limni raqamlashtirish – zamon talabi

Islohotlar davrida raqamli ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida «Smart-akademiya» platformasini bosqichma-bosqich joriy qilishga kirishildi. Ta'lim sifatini nazorat va monitoring qilish markazi tashkil etilib, professor-o'qituvchilar faoliyatini baholashning «Smart-reyting» tizimi yaratildi. Bundan tashqari, bakalavriat va magistraturada hamda masofaviy o'qitishda ta'lim jarayonlarini samarali boshqarishga qaratilgan platformalar ishga tushirildi.

Hal qiluvchi kuch

Yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish maqsadida ta'lim dargohida O'zbekiston Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkilotining faoliyati yo'lga qo'yildi. Shu tariqa yoshlar balansi shakllantirildi.

Iqtidorli kursantlar kengashi tashkil etilib, bilimli, tashabbuskor va fidoyi yoshlar uchun Ichki ishlar vazirligining «Jaloliddin Manguberdi» nomidagi stipendiyasi, «Iqtidorli kursant», «Akademiya a'lochisi», «Cho'lpon» ko'krak nishonlari hamda ma'rifatparvar adib nomi bilan ataluvchi stipendiya ta'sis etildi.

Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan besh muhim tashabbus asosida ma'naviy-ma'rifiy, badiiy-estetik tarbiya hamda sport yo'nalishlarida yangi to'garaklar, shuningdek kursant qiz-



MA'LUMOT O'RNIDA

✦ IIV Akademiyasi 1994-yil 2-sentabrda tashkil topgan.

✦ Hozirda ichki ishlar organlari uchun professional kadrlar tayyorlashga ixtisoslashgan oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasasi hisoblanadi.

✦ Kunduzgi ta'lim bakalavriatida 8 ta yo'nalish, magistraturada 3 ta mutaxassislik bo'yicha kadrlar tayyorlanmoqda.

✦ Ta'lim muassasasida 48 nafar fan doktori, 135 nafar falsafa doktori va fan nomzodi, 40 nafar professor, 132 nafar dotsent faoliyat yuritmoqda.

✦ O'quv jarayonini samarali tashkil etish maqsadida 3 ta boshqarma, 8 ta fakultet, 22 ta kafedra, 9 ta markaz, 15 ta bo'lim va xizmat, shuningdek ilmiy darajalar beruvchi 3 ta ilmiy kengash, 7 ta ilmiy maktab, 7 ta intellektual klub, 22 ta ilmiy to'garak mavjud.

✦ Bugungi kunda Akademiya dunyoning 11 ta nufuzli xalqaro tashkiloti va 40 ta xorijiy turdosh oliy ta'lim muassasasi bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni yo'lga qo'ygan.

larni oilaviy hayotga tayyorlashga qaratilgan o'quv kurslari tashkil qilindi.

Yurtimiz yoshlari o'rtasida sog'lom ma'naviy muhitni qaror toptirish, ularning vatanparvarlik fazilatlarini yuksaltirish, ichki ishlar organlari xodimi kasbiga bo'lgan qiziqishini oshirish maqsadida Kinematografiya agentligi bilan hamkorlikda «Hayot akademiyasi» filmi yaratilib, mamlakatimiz bo'ylab keng namoyish etildi.

Bir so'z bilan aytganda, keyingi yillar Akademiyamiz faoliyatida tub islohotlar davri bo'ldi. Yangi O'zbekistonda kechayotgan bugungi yangilanishlar jarayoni yanada shijoat, qat'iyat va fidoyilik bilan mehnat qilishni, islohotlar talabiga mos kadrlar tayyorlashdek ustuvor vazifani yuksak mas'uliyat va sharaf bilan ado etishni talab qilmoqda. Zero, ona Vatanimizning ertangi istiqboli biz tarbiyalaydigan yosh avlodning bilimi, dunyoqarashi, burchga sadoqati, yurt tinchligi va xalq manfaatlarini yo'lida sidqidildan xizmat qilishiga bog'liq.

SHAROIT MUNOSIB BO'LSA

Farg'ona viloyati IIB Kiberjinoyatlarga qarshi kurashish boshqarmasi, Birinchi mintaqaviy hudud mintaqaviy muvofiqlashtirish markazi hamda Farg'ona shahar 2-sonli IIB xodimlari endi yangi, zamonaviy va barcha talablarga javob beradigan binolarda xizmat qilishadi.

Kuni kecha Farg'ona shahrining Qirguli mavzesida joylashgan ushbu ma'muriy binolar majmuasi tantanali ravishda foydalanishga topshirildi.

Yangi binolar eng zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli boshqaruv tizimlari, videokuzatuv va tahlil vositalari, shuningdek, mebel va texnik jihozlar bilan to'liq ta'minlangan.

– Kiberjinoyatlar salmog'ining oshib borishi bu turdagi jinoyatlarga qarshi kurashishda yanada ta'sirchan choralar ko'rishni talab etmoqda, – deydi viloyat IIB Kiberjinoyatlarga qarshi kurashish boshqarmasi katta

inspektori, podpolkovnik Abdurahim Eminov. – Jinoyatlarning shakli va sodir etilish usullari tobora takomillashib borayotganini hisobga olib, yangi binoda kiberlaboratoriya hamda raqamli kriminalistika xonalari yaratildi. Kiberprofilaktika bo'limida esa axborot-media xonasi



tashkil etilgan bo'lib, bu yerda targ'ibot-axborot ishlarini amalga oshirish va targ'ibot materiallarini tayyorlash imkoniyati mavjud.

Mintaqaviy muvofiqlashtirish markazi hamda 2-sonli IIB uchun ajratilgan binolarda ham barcha qulayliklar mavjud. Xususan, navbatchilik qismi, murojaatlar xonasi, so'rovxona, oshxona, avtoturargoh va ko'maklashuv guruhi xonasi mavjud. Farg'ona viloyatida joriy etilayotgan ko'maklashuv guruhi xonasida tezkor xizmatlarda ishlab nafaqaga chiqqan faxriylar faoliyat olib boradi. Ular jinoyat qidiruv bo'limi xodimlariga amaliy yordam beradi. Vatanparvarlik burchagi esa shaxsiy tarkibning ma'naviy salohiyati va kasbiy bilimlarini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Abduvosit SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.

Farg'ona viloyati.



www.youtube.com/@Postda_IIV



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.instagram.com/postda.uz

Soha fidoyilari

Yurt tinchliligi va el osoyishtaligini ta'minlash yo'lida kunni tunga ulab xizmat qilayotgan insonlarning fidoyiligi ko'pincha ko'zga tashlanmaydi. Ammo davlat ahamiyatiga ega obyektlar, banklar, sud va prokuratura idoralari binolarining xavfsizligi aynan shunday xodimlarning jonbozligi evaziga ta'minlanadi.

O'N BESH YILLIK SERGAKLIK

Surxondaryo viloyati IIB huzuridagi Qo'riqlash xizmati safida 15 yildan buyon samarali faoliyat yuritayotgan kichik serjant Sirojiddin Mirkomilov burchiga sadoqatli xodimlardan biri. U bugungi kunda «O'zmilliybank» AJ viloyat bosh boshqarmasi Termiz filiali xavfsizligini ta'minlashga munosib hissa qo'shib kelmoqda.

– Xizmatimizda eng muhim jihat – hushyorlik, – deydi kichik serjant Sirojiddin Mirkomilov. – Bir lahzalik e'tiborsizlik ham tuzatib bo'lmay oqibatlariga olib kelishi mumkin. Shuning uchun har birimiz doimo sergak bo'lishimiz shart.

Uning ta'kidlashicha, qo'riqlash xizmati nafaqat jismoniy tayyorgarlik, balki yuksak muomala madaniyatini ham talab qiladi.

Sirojiddin Mirkomilovning xizmat faoliyati davomida yuz bergan voqealar ham bu kasbda hushyorlik va tezkorlik qanchalik muhim ekanini yaqqol ko'rsatadi. Xususan,

2015-yilning oktabr oyida tungi navbatchilik paytida u bank binosi-

ga o'g'rincha kirishga uringan ikki nafar shaxsni payqab qoladi. Tezkor



harakatlar natijasida gumonlanuvchilar voqea joyida qo'lga olinib, ehtimoliy o'g'irlik jinoyatining oldi olinadi.

2017-yilda Termiz davlat universitetida qabul jarayonlari ketayotgan bir paytda abituriyentlar va ularning yaqinlari to'plangan hududda nomal'um kimsa bir qizning tilla taqinchog'ini tortib olib, qochishga urinadi. Sirojiddin zudlik bilan harakat qilib, jinoyatchini ushlashga muvaffaq bo'ladi. Mana shunday shijoati va sergakligi uchun u bir necha bor rag'batlantirilgan.

– Agar inson o'z kasbini sevsa, har qanday qiyinchilikni yengib o'tadi, – deydi suhbatdoshimiz. – Muhimi, o'z oldingga aniq maqsad qo'yib, jismoniy va ma'naviy jihatdan o'z ustingda ishlashdan to'xtamaslik kerak.

Xalq osoyishtaligi va mulk daxlsizligi yo'lida xizmat qilayotgan qo'riqlash xizmati xodimlarining mehnati har qanday e'tirofga loyiq. Kichik serjant Sirojiddin Mirkomilov kabi o'z qasamyodiga sodiq insonlar bor ekan, el osoyishta, yurt tinch bo'ladi.

Feruza RAHMONQULOVA,
o'z muxbirimiz.

Surxondaryo viloyati.

Ta'lim

JASORATNING ILK IMTIHONI

Vatan taqdiriga daxldorlik tuyg'usi, yuksak vatanparvarlik va harbiy kasbga qiziqishni bolalikdan shakllantirish mamlakatimizda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Ana shu maqsadga xizmat qilayotgan «Jasorat maktablari»ga qabul jarayonlari bu yil ham yuqori uyushqoqlik bilan boshlandi. Jumladan, Bilim va malakalarni baholash agentligining Andijon viloyati bo'limida 2026/2027-o'quv yili uchun mazkur maktablarning 5-sinfiga hujjat topshirgan nomzodlar o'rtasida birinchi bosqich test sinovlari o'tkazildi.



chilar xato qilishadi, – deydi qo'rg'ontepalik Robiyaxon Hamidova. – Xotin-qizlar hamisha el-yurt himoyasida faol ishtirok etib kelgan. Men ham nabiram Roziyaxonning kelgusida harbiy bo'lib, tinchligimiz posboni bo'lishini orzu qildim. Bu istak undagi xohish va intilishlar bilan uyg'unlashdi. Bugungi imtihon uning orzulari ro'yobga chiqishiga xizmat qilishiga ishonchim komil.

Joriy yilda respublika bo'yicha «Jasorat maktablari»da tahsil olish istagini bildirgan 23 ming 253 nafar nomzoddan hujjat qabul qilindi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 7 ming 72 nafarga ko'p bo'lib, mazkur ta'lim muassasalariga qiziqish tobora ortib borayotganini ko'rsatadi. Andijon viloyatida birinchi bosqich test sinovlarida 1 ming 887 nafar nomzod ishtirok etdi.

Saminjon HUSANZODA,
o'z muxbirimiz.

Andijon viloyati.

Imtihonlar boshlanishidan oldin mas'ul vazirlik va idoralar rahbarlari nomzodlar hamda ularning otionalari bilan uchrashib, saraklash jarayonlari ochiqlik, shaffoflik va adolat tamoyillari asosida tashkil etilganini ta'kidlashdi. Garnizon harbiy orkestrining chiqishlari esa tadbir ishtirokchilariga bayramona kayfiyat bag'ishladi.


– Vatan himoyasi faqat yigitlarning burchi, deguv-



KITOB – MA'NAVIYAT KO'ZGUSI

Dunyodagi har qaysi davlat, har qaysi xalq birinchi navbatda o'zining intellektual salohiyati, yuksak ma'naviyati bilan qudratlidir. Bunday yengilmas kuch manbai esa avvalo insoniyat tafakkurining buyuk kashfiyoti – kitob va kutubxonalarda.

Shavkat MIRZIYOYEV



Insoniyat tarixiga nazar tashlar ekanmiz, birorta jamiyat kitobsiz va ilmsiz yuksaklikka erishmaganiga guvoh bo'lamiz. Kitob – shunchaki qog'oz va harflar jamlanmasi emas, balki ajdodlardan avlodlarga meros bo'lib kelayotgan bilim, tajriba va hikmatlar xazinasidir. «Kitob – ma'naviyat ko'zgusi» degan hikmat ibora zahirida juda chuqur ma'no mujassam. Ko'zgu insonning tashqi qiyofasini aks ettirsa, kitob uning ichki dunyosi, ma'naviy olamini namoyon etadi.

Madaniyat va ma'rifat g'oyat keng tushunchalar bo'lib, ularning o'zak va tayanch nuqtasini mutolaa tashkil etadi. Inson o'z dunyoqarashini boyitishga, tarix va kelajakni anglashga doimo ehtiyoj sezadi. Bu ehtiyoj esa faqat va faqat mutolaa orqali qondiriladi.

Globallashuv davrida kitobxonlik madaniyati umumiy madaniyatning mag'ziga aylandi. Ayniqsa, ichki ishlar organlari xodimlarini yuksak kasb madaniyati sohibi etib tarbiyalashda, ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat hamda istiqbol g'oyalari sadoqat ruhini shakllantirishda kitobning o'rni beqiyos. Zero, kitobxon xodim – mustaqil fikrlovchi, huquqiy ongi yuksak va xizmat burchiga sadoqatli shaxsdir.

Bugungi kunda Ichki ishlar vazirligi tizimida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, xodimlar o'z ustida ishlashi uchun keng sharoitlar yaratilmoqda. Davlat rahbarining sohaga oid qaror va farmonlari bu boradagi ishlarni yangi sifat bosqichiga olib chiqdi. Yosh xodimlar, harbiy xizmatchilar hamda kursantlar o'rtasida an'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan «Eng yaxshi kitobxon» tanlovi mutolaaga bo'lgan ishtiyoqni oshirishda muhim o'rin tutmoqda.

Shuningdek, haftaning juma kunida joriy etilgan maxsus «o'z ustida ishlash va kitobxonlik soati» xodimlarning muntazam bilim olishini ta'minlamoqda. Vazirlikda zamonaviy elektron kutubxona yangidan tashkil etilib, unga minglab badiiy, ilmiy va huquqiy adabiyotlar kiritildi. Eng muhimi, Alisher Navoiy nomidagi Milliy kutubxona bazasi bilan integratsiya ta'minlangani xodimlar uchun katta imkoniyat eishigini ochdi.

Ayni damda tizimda 50 dan ortiq axborot-kutubxona markazlari faoliyat yuritmoqda. Ularning umumiy kitob fondi 675 mingdan ziyod noyob adabiyotlar bilan boyitilgan.

Quvonarlisi, tizimda kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish borasida olib borilayotgan ishlar nafaqat xodimlar, balki ularning oila a'zolari hayotida ham o'z aksini topmoqda.

Buning yorqin misollaridan biri – Buxoro viloyati Peshku tumani IIB profilaktika inspektori, mayor Nasim Bog'iyevning 13 yoshli qizi Farzona Nosirovaning yutug'idir. U «Yosh kitobxon» tanlovining respublika bosqichida mutlaq g'oliblikni qo'lga kiritib, Prezident sovg'asi – «BYD Chazor» avtomobili bilan taqdirlandi. Farzoning ushbu yuksak natijaga erishishida ota-onasining mehri, tarbiyasi va doimiy qo'llab-

quvvatlashi muhim o'rin tutdi. Bu yutuq, avvalo, oiladagi sog'lom ma'naviy muhit va kitobga bo'lgan muhabbatning yorqin namunasidir.

Ichki ishlar organlari xodimlarining kundalik faoliyati o'ta mas'uliyatli va mashaqqatli. Huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurashish, yurt tinchligini ta'minlash zahirida chuqur bilim va yuksak ma'naviyat yotadi. Kitob mutolaasi esa xodimning kasbiy mahoratini oshirish bilan birga uning insoniy fazilatlarini ham boyitadi.

Kitobga bo'lgan mehr – bu Vatanga bo'lgan muhabbatning yuksak ko'rinishidir. Shu bois vazirlik tizimidagi kutubxonalar imkoniyatlaridan unumli foydalanish, mutolaani hayot tarziga aylantirish har bir xodimning sharafli burchiga aylanishi lozim. Zero, ma'naviyati yuksak xodimgina xalqimizning baxt-saodati va yurtimiz tinchligini astoydil himoya qila oladi.

Xulosa o'rnida aytganda, ichki ishlar organlarida kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish orqali huquqiy, siyosiy va ma'rifiy bilimlarni oshirish – davr taqozosi. Bu yo'lda sobitqadamlik, o'z ustida muntazam ishlash va shaxsiy javobgarlikni his etish talab etiladi. Zero, kitob bizning ma'naviy qalqonimiz, kasbiy kamolotimizning eng ishonchli yo'ldoshidir.

Feruz YO'LDOSHOV,
o'z muxbirimiz.



Qoraqalpog' tili
tilidagi matn.



Rus tili
tilidagi matn.

Bu – qiziq

— Bitta roman yozish uchun 500 soat ketadi.

— Ayollar erkaklarga qaraganda ko'proq (68%) kitob xarid qiladilar.

— Dunyoda sotiladigan kitoblarning yarmidan ko'pini 45 yoshdan oshgan kishilar sotib oladilar.

— Qamoqda yozish rejasiz tuzilgan kitoblar orasida Servantesning «Don Kixot», Jon Banning «Avliyoning sayohati», Oskar Uayldning «Qamoqdagi istig'for», Nikolo Makiavellining «Hukmdor» asarlari mavjud.

— Dunyodagi eng katta lug'at «Nemis lug'ati» («Deutsches Worterbuch») bo'lib, u 1854-yili Yakob va Vilgelm Grimm tomonidan boshlangan. Bu ishga keyinchalik turli olimlar hissa qo'shib, 1971-yili yakunlangan. 33 jildli ushbu lug'at 34519 betdan iborat.

— Barcha zamon va xalqlarning eng mashhur yozuvchisi Agata Kristidir. Uning detektiv hikoyalari 50 dan ortiq tilda hamon chop etilmoqda. Kristining nashr etilgan kitoblari nusxasi 2 milliarddan oshadi.

— Dunyodagi eng og'ir kitob Britaniya muzeyida saqlanuvchi XVII asrga oid geografik atlasdir. Uning bo'yi 1,9 metr, og'irligi 320 kilogramdir.

— Napoleon daqiqasiga 2000 ta so'zni o'qiy olgan.



Innovatsiya

RAQAMLI XAVFSIZLIK

yoxud chiroqchilik xodim yaratgan mobil ilovalar xususida

Ichki ishlar organlari xodimlari o'z xizmat faoliyati davomida to'plagan boy amaliy tajribani axborot texnologiyalari sohasidagi bilim va ko'nikmalar bilan uyg'unlashtirgan holda, tizimga zamonaviy innovatsion yechimlarni tatbiq etmoqdalar.

Xususan, Chiroqchi tumani IIB JXX Huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmasi katta inspektori, katta leytenant O'rol Abduvaliyev kiber-jinoyatlarga qarshi kurashish maqsadida «AslQalqon» mobil ilovasini yaratdi. Ayni paytda ushbu dastur amaliyotga joriy etilib, fuqarolar o'rtasida keng ommalashtirilmoqda.

«AslQalqon» mobil ilovasi qator muhim qulayliklarga ega. Jumladan, u qurilmaga noma'lum va xavfli «apk» formatdagi fayllarni o'rnatishni cheklaydi. Foydalanuvchi Instagram, Imo hamda Telegram kabi ijtimoiy tarmoqlardan foydalanayotganda, yangi viruslar, zararli havolalar va shubhali guruhlar haqida tezkor ogohlantirish tizimi ishga tushib, tegishli xabarlar yuboriladi. Shuningdek, dastur SMS va qo'ng'iroq xizmatlaridan foydalanish huquqiga ega bo'lgan ilovalarni tahlil qilib, ularni xavflilik darajasiga ko'ra toifaladi. Ilovaning asosiy sahifasi orqali esa foydalanuvchilar tuman IIB so'nggi yangiliklari va e'lonlari bilan muntazam tanishib borishlari mumkin.

Katta leytenant O'rol Abduvaliyevning yana bir izlanishi mahsuli – «Tezkor xabarlar» mobil ilovasi bo'ldi. Ma'lum bir guruh foydalanuvchilari uchun mo'ljallangan mazkur ilova tezkor xabar almashish va


muhim ogohlantirishlarni o'z vaqtida yetkazish imkoniyatini yaratadi. Xususan, mobil ilovadan ichki ishlar organlari xodimlari xizmat faoliyatini samarali tashkil etishda foydalanishi mumkin.



Hozirgi paytda tuman IIB xodimlari ushbu mobil ilova orqali kunlik topshiriqlar, tezkor xabarlar va xizmatga oid ma'lumotlarni zudlik bilan qabul qilib olmoqdalar. Profilaktika inspektorining uyali telefoniga kelib tushgan xabar o'qilgandan so'ng bu haqda xabar yuborgan rahbar

xodimga avtomatik ravishda ma'lumot yetkaziladi.

– Profilaktika inspektorlarining aholi bilan muntazam muloqotda bo'lishini inobatga olib, «Tezkor xabarlar» mobil ilovasiga xizmat intizomiga qat'iy rioya etish, korruptsiyaning oldini olish va manfaat-



lar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik bo'yicha maxsus ogohlantirish tizimi ham kiritilgan, – deydi katta leytenant O'rol Abduvaliyev. – Bu xodimlarning mas'uliyatini oshirish, xizmat intizomi va korruptsiyaga qarshi murosasiz munosabatini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o'rniida aytish mumkinki, soha xodimlarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi tashabbuslari huquq-tartibot tizimini zamon talablari asosida takomillashtirishda muhim omil bo'lmoqda. Raqamli texnologiyalarni faoliyatda keng qo'llash kelgusida ham jamoat xavfsizligini ishonchli ta'minlash hamda jinoyatchilikning barvaqt oldini olishda yuqori natijalarni berishi shubhasiz.

Sodiq RAHIMOV,
o'z muxbirimiz.

Qashqadaryo viloyati.

Qilmish-qidirmish

Xalq maqollari juda topib aytilgan: «Yolg'onchiga yo yalqov, yo anqov ishonar». Axir, bugun haydovchilik guvohnomasini olish u qadar oson emasligini hamma yaxshi biladi. Muayyan muddat davomida o'qib-o'rganib, nazariy va amaliy imtihonlardan muvaffaqiyatli o'tgan shaxsgina ushbu hujjatga ega bo'lishi mumkin.

Shunga qaramay, o'ramizda hali ham qonunni chetlab o'tib, haydovchilik guvohnomasini eski usullar bilan, ya'ni «gaplashib» olish mumkinligiga ishonuvchilar uchrab turibdi. Yaqinda Jizzax viloyati IIB hamda Davlat xavfsizlik xizmati viloyat boshqarmasi xodimlari hamkorligida Jizzax shahrida o'tkazilgan tezkor tadbir davomida fuqarolarning ishonchiga kirib, firibgarlik yo'li bilan pul o'zlashtirmoqchi bo'lgan shaxs qo'lga olindi.

Aniqlanishicha, 1995-yil Jizzax shahrida tug'ilgan, xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi N.Z. fuqarolarni avtomaktabda tahsil olmagan bo'lsa-da, ularga o'qigani to'g'risida soxta hujjatlar rasmiylashtirib, tanishlari orqali haydovchilik guvohnomasini olib berishga ishontirgan. Albatta,

YOLG'ON UZOQQA KETSA-DA,
HAQIQAT QUVIB YETAR

bu «xizmat» tekin emas – u fuqarolardan 10 million so'm miqdorida pul talab qilgan.

Shahardagi «Great Garden» kafesi yaqinida o'tkazilgan tezkor tadbirida ushbu «hojatbaror» kelishilgan pul mablag'ini olayotgan vaqtda ashyoviy dalillar bilan qo'lga olindi. Holat yuzasidan Jinoyat kodeksining tegishli moddalar bilan jinoyat ishi qo'zg'atildi.

Surishtiruv davomida N.Z. muqaddam Jinoyat kodeksining 169-moddasi bilan jinoiy javobgarlikka tortilgani ma'lum bo'ldi. Afsuski, avvalgi qilmishidan tegishli xulosa chiqarmagan shaxs yana jinoyat ko'chasi-ga kirdi va endi qonun oldida javob bera-di. Eng achinarlisi, ayrim fuqarolarning hali-hanuz yolg'on va dalarga ishonib, firibgarlar tuzog'iga tushayotgani kishini o'ylantiradi.

Muqaddas SAPAROVA,
o'z muxbirimiz.

Jizzax viloyati.

«NAVBATCHILIK QISMI ESHITADI!»

Bir qo'ng'iroq, bedor tun va o'nlab xonadonlar osoyishtaligi haqida

Telefonning bir jiringlashi

Soat millari tungi o'n birni ko'rsatmoqda.

Ko'pchilik xonadonlarda chiroqlar allaqachon o'chgan.

Mirzo Ulug'bek tumani 2-sonli Ichki ishlar bo'limi Navbatchilik qismida esa tungi smena boshlangan. Telefonning har bir jiringlashi oddiy tovush emas — kimningdir dardi, kimningdir qo'rquvi, kimningdir umidi. Ba'zan esa u bir necha oila tinchligini saqlab qolish imkoniyatidir.

Navbatchi deganda aksariyat shunchaki telefon go'shagini ko'taruvchi xodimni tasavvur qiladi. Aslida esa Navbatchilik qismi — go'yo ichki ishlar organlarining yuragi. Bu yerga kelib tushgan har bir murojaat soniyalar ichida tahlil qilinadi. Vaziyat baholanadi, hudud aniqlanadi, qaysi xizmat yuborilishi belgilanadi. Zarurat bo'lsa, bir vaqtning o'zida profilaktika inspektori, patrul-post xizmati, qo'riqlash bo'linmalari va boshqa kuchlar harakatga keladi.

Har bir qaror inson taqdiriga ta'sir qilishi mumkin. Shu sababli navbatchining biror soniya beparvo bo'lishga haqqi yo'q.

«Iltimos, yordam bering...»

Ana shunday daqiqalarda telefon jiringladi.

— Qo'shni xonadondan baland shovqin eshiti-yapti. Yosh bolalar qo'rqib uyg'onib ketdi... Iltimos, yordam bering.

Murojaat ortida oddiy fuqaroning xavotiri bor edi. Manzil — Munavvarqori mahallasi, Pilla ko'chasi. O'sha tun navbatchilikda xizmat olib borayotgan katta inspektor-navbatchi, katta leytenant Oydin Xonkeldiyeva vaziyatni bir zumda baholadi. Kerakli ma'lumotlarni aniqladi.

Vaqtni boy bermadi. Tungi xizmatda bo'lgan 297-yo'nalish avtoekipaji hamda profilaktika inspektori, leytenant Husniddin Bekqulov voqea joyiga yo'naltirildi.

Keskin vaziyat

Xodimlar manzilga yetib kelganida xonadondagi baland musiqa ovozi tashqarigacha eshitar, shovqin-suron davom etayotgan edi.

Tun sukunati allaqachon buzilgan. Qo'shni xonadonlarda chiroqlar qayta yoqilgan. Bolalar uyg'onib ketgan. Keksalar bezovta, norozi kayfiyatda xonadonlar derazalaridan boqardi.

Voqea ishtirokchilari ichki ishlar xodimlarining qonuniy talabini darhol qabul qilmadi. Bir muddat holat tarang tus oldi. Bunday vaziyatlarda salgina noto'g'ri muomala, bitta noo'rin so'z mojaroni yanada kuchaytirishi mumkin. Ammo haqiqiy professionalning kuchi baland ovozida emas, aksincha — vazminligida.

Leytenant Husniddin Bekqulov oqilona yo'l tutdi. Fuqaroga javoban ovozini ko'tarmadi. Keskinlikni keskinlik bilan yengishga urinmadi. Avvalo tingladi, so'ng tushuntirdi. Fuqarolarga qonun talablarini xotirjam ohangda yetkazdi. Inson qadrigimmatini hurmat qilgan holda muloqot olib bordi.

Natijada vaziyat iziga tushdi. Voqea ishtirokchilari bo'lgan xonadon egalari xodimning vazifasi mas'uliyatini ham, o'z fuqarolik burchini ham anglab yetdi. Mahallaga sokinlik qaytdi.



Odamlar faqat natijani ko'radi

Ichki ishlar organlari faoliyatining eng murakkab tomoni ham shunda — ko'pchilik yakunnigina ko'radi. Lekin o'sha yakunga kelguncha qanchalik kuchli ruhiy bosim, qanday mas'uliyat, sabr va professionallik yashirin ekanini hamma ham bilavermaydi.

Bir qarashda oddiy ko'ringan tungi murojaat ayrim hollarda og'ir jinoyatga, oilaviy fojiga yoki inson hayoti uchun xavf tug'diruvchi vaziyatga aylanishi ham mumkin. Shu bois ichki ishlar xodimi uchun har bir qo'ng'iroq — jiddiy sinov.

Vaziyat ijobiy hal etilgach, murojaat qilgan fuqaro ichki ishlar xodimlariga minnatdorlik bildirdi.

— Bolalarimiz yana tinch uxlayapti. Shunday fidoyi xodimlar borligi uchun mahallamiz ham, yurtimiz ham osoyishta. Sizlarga rahmat.

Bu shunchaki minnatdorlik emasdi.

Bu ichki ishlar organlariga bildirilgan ishonch edi.

Tungi osoyishtalik — qonun talabi

Jamoat tartibini va tunda fuqarolarning tinchini buzish qonunchilikda javobgarlikka sabab bo'ladi.

Yuqoridagi holat yuzasidan huquqbuzarga nisbatan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning tegishli moddasi talablariga muvofiq ma'muriy bayonnoma rasmiylashtirildi.

Mazkur norma fuqarolarning osoyishtaligini buzuvchi xatti-harakatlar uchun javobgarlikni belgilaydi. Qonunning mazmuni oddiy haqiqatni anglatadi: tungi osoyishtalik — har bir fuqaroning qonun bilan himoyalangan huquqidir.

Shifokor tavsiyasi: nega soat 22:00 dan uxlash kerak?

Nevropatolog-neypsixolog Sobitjon Qurbonovning ta'kidlashicha, inson organizmi kechki va tungi soatlarda tiklanadi.

— Uyquga ketish uchun eng maqbul vaqt tungi soat o'n atrofidir. Shunda bosh miyaning tabiiy tiklanish jarayonlari me'yorida kechadi, melatonin gormoni yaxshi ajraladi va asab tizimi dam oladi. Tungi shovqin esa uyqu sifatini buzadi, stressni kuchaytiradi, immunitetni pasaytiradi. Ayniqsa, bolalar va keksalar uchun bu vaqtda orom olish salomatlikning muhim shartidir.

Demak, ichki ishlar xodimlari faqat jamoat tartibini emas, aslida odamlarning salomatligi va ertangi kunini ham himoya qilmoqda.

«Vazifamiz — xalq tinchligini asrash»

Katta leytenant Oydin Xonkeldiyeva shunday deydi:

— Har bir navbatchilik boshqacha o'tadi. Turli xarakterdagi insonlar bilan muloqot qilamiz. Ba'zan hissiyotga berilgan, ba'zan mast holatda bo'lgan fuqarolar ham uchraydi. Lekin biz nafaqat vaziyatga qarab, balki birinchi navbatda qonun bo'yicha harakat qilamiz. Maqsadimiz — fuqarolar tinchligini saqlash, bildirilgan ishonchni oqlash.

Leytenant Husniddin Bekqulov so'zlaridan:

— Ba'zan odamlar xizmat vazifamizni shaxsiy munosabat deb qabul qiladi. Lekin vaqt o'tib, hammasi o'z tinchligi uchun qilinayotganini tushunadi. Fuqarolarning samimiy «rahmat» degani biz uchun eng katta mukofot.

Tungi shahar uxlaydi...

Navbatchilik qismida esa yana telefon jiringlaydi. Yana kimdir yordam so'raydi.

Yana bir ekipaj yo'lga chiqadi.

Yana kimdir o'z oilasi bag'rida emas, xizmat avtomobilida tong otiradi.

Chunki ular bitta haqiqatni yaxshi biladi:

Vatan tinchligi hamisha ham katta janglarda emas, ba'zan mana shunday kichik, ammo o'z vaqtida hal etilgan masalalardan boshlanadi.

Ertalab uyg'onganimizda ko'chalarimiz osoyishta, mahallalarimiz tinch va farzandlarimiz xotirjam bo'lsa, bu tasodif emas.

Bu — tunni bedor o'tkazgan, har bir qo'ng'iroqqa mas'uliyat bilan javob bergan, har bir murojaat ortida inson taqdirini ko'ra olgan va voqea joyiga chiqib, masalaga yechim topib, qonuniy ish tutgan ichki ishlar xodimlarining mashaqqatli mehnati samarasi.

Shunday fidoyi insonlar bor ekan, yurtimiz tinchligi, mahallalarimiz osoyishtaligi va bolalarimizning beg'ubor uyqusi ishonchli qo'llarda. Ularning xizmatini qadrlash esa har birimizning ma'naviy burchimizdir.

Mohichehra ESHMIRZAYEVA,
O'zbekiston jurnalistlari
ijodiy uyushmasi a'zosi.

Mahalla tinch — yurt tinch

ORZUDAN
EL ISHONCHIGACHA

Inson taqdirida bolalikdan qalbgga jo bo'lgan orzular muhim o'rin tutadi. Ayrimlarning rejaları vaqt o'tishi bilan o'zgarib ket-sa, boshqalar ularga erishish yo'lida bor kuch-g'ayrati, bilimini safarbar etadi. Nurobod tumanidagi «Oqsoy» mahalla fuqarolar yig'ini profilaktika katta inspektori, kapitan Habibullo Ro'ziyevning xizmat yo'li ham ana shunday qat'iyat namunasidir.

Habibulloning ichki ishlar organlarida xizmat qilish ishtiyoqi yetti yoshida, Samarqand viloyati IIB Yo'l harakati xavfsizligi xizmatida faoliyat yuritgan tog'asi Dilshod Abdulimovning xizmat libosidagi salobatini ko'rgandayoq uyg'ongan. U jismoniy chiniqishga, bilim olishga alohida e'tibor qaratdi. Olg'a intilish tuyg'usi uni qadam-ma-qadam o'z maqsadi sari yetakladi.

Bugungi kunda kapitan Habibullo Ro'ziyev o'ziga birlashtirilgan hududda osoyishtalikni ta'minlash, fuqarolar muammolarini hal etish va yoshlar tarbiyasiga ko'maklashish borasida samarali xizmat qilmoqda. Mahalla hududida mashhur «Hazrati Dovud» ziyoratgohi joylashgan bo'lib, bu yerda tartib-intizomni saqlash ham xodimdan alohida mas'uliyat talab etadi.

— Mahallamiz «yashil» toifada, — deydi kapitan Habibullo Ro'ziyev. — Ziyoratchilar oqimi katta bo'lgani bois, ularning emin-erkin harakatlaniishi uchun har bir jarayon qat'iy nazoratda. Xizmat faoliyatimda birinchi ustozim — hozirda Kattaqo'rg'on tumanida ishlayotgan mayor Nodirxon Bahrixojayevning o'rni katta. U menga har qanday vaziyatda qonunga tayanib ish yuritish va adolat tamoyillariga sodiq qolishni, odamlar bilan muomala madaniyatini va fuqarolar muammolariga befarq bo'lmaslikni o'rgatgan.

Profilaktika inspektori mahalla faollari bilan hamkorlikda ziyoratgoh hududida turli ko'ngilsiz hodisalarning oldini olish, xavfsizlikni ta'minlash va aholiga qulay sharoit yaratishda jon-



bozlik ko'rsatib kelmoqda. Uning o'z vazifasiga mas'uliyat bilan yondashayotgani tufayli hududda jamoat tartibi va osoyishtalik barqaror ta'minlangan.

— Hayotdagi shiorim — intilganga tole yor. Chunki xizmatga kirishim oson bo'lmagan. Ko'zlagan natijaga erishish uchun ketma-ket uch yil hujjat topshirganman va maqsadimdan qaytmaganman. Baribir shu sharaflı formani kiyaman, degan qarorim ustuvor bo'lgan, — deydi qahramonimiz.

Habibullo Ro'ziyev rafiqasi Sevaraxon bilan ikki o'g'il va bir qizni halollik, mehnatsevarlik hamda vatanparvarlik ruhida tarbiyalamoqda. Xizmatdan so'ng uyga oshiqarkan, farzandlarining yutuqlari va oila bag'ridagi mehr-oqibatdan yangi kuch-quvvat oladi. Uning fikricha, inson uchun eng katta boylik — tinch va ahil oiladir.

Umida MAMADALIYEVA,
o'z muxbirimiz.

Samarqand viloyati.

Donolar
so'zlaydi,
biz yodga
solamiz



Mahallaning tinchliligi va osoyishtaligi ko'p jihatdan profilaktika inspektorining sergakligiga, hushyorligiga bog'liq. Ayniqsa, mahalladagi yosh-u qarini yaxshi tanigan, odamlarning dard-u tashvishi bilan yashaydigan jonkuyar xodim xizmat hududidagi begona yoki shubhali shaxsni darhol payqaydi.

HUSHYORLIGI QO'L KELDI



Navbahor tumanining «O'zbekiston» mahallasida qariyb 3200 nafar aholi istiqomat qiladi. Ko'pchilik chorvachilik va dehqonchilik bilan mashg'ul. Boshqa yo'nalishlarda tadbirkorlik bilan shug'ullanadiganlar ham bor. Profilaktika inspektori, kapitan

Bahriddin Yuldoshevning o'zi ham shu mahallada istiqomat qiladi.

U doim yon-atrofnı ku-zatib yurishga odatlangan. Pana-pastqam joylarni ham vaqti-vaqti bilan ko'zdan kechirib turadi. Yaqinda xizmatini yakunlab, uyiga qaytarkan,

o'sha odatini kanda qilmadi. Kechki payt bo'lgani uchun hamma o'z uyida edi. Shu mahalda bir begona erkak yo'l chetidan xiyol chayqalib kelardi. Kiyimlari ham bir ahvolda...

«Bu kim bo'ldi ekan? Qadam tashlashidan mastga

o'xshaydi. Mehmondorchilikdan qaytyaptimikan? Balki, tobi qochgandir. Inspektor shu kabi o'y-xayollar bilan unga yaqinlashdi. Haligi kishi yuzini pana qilishga urinayotgani kapitan Yuldoshevning shubhasini battar oshirardi.

Inspektor uning yoniga borib, kimligini, nima maqsadda yurganini so'radi. Notanish kimsa mast holatda bo'lgani uchunmi negadir asabiylashdi. Hatto xodimning savollariga javob bermay, qochishga urindi. Kapitan darhol bu haqda tuman IIB Navbatchilik qismiga xabar berdi. Tergov-tezkor guruhi yetib kelgunicha shubhali shaxsni gapga solib turdi.

Tekshiruvlar davomida ma'lum bo'lishicha, u tumaning boshqa mahallasida yasharkan. Ko'zdan kechirilganida, yonidan qog'ozga o'ralgan, quritilgan marixuana giyohvandlik vositasi topildi. Fuqaroning yashash manzili o'rganilganda esa yana-

da jiddiy qonunbuzarlikka duch kelindi. U tomoqasida giyohvandlik vositasi tayyorlashda ishlatiladigan zahri qotil o'simligini yashirincha parvarishlab kelayotgani oshkor bo'ldi.

Kim biladi deysiz, profilaktika inspektori sergak va hushyor bo'lmaganida, haligi kimsa mastligi tufayli biror kori hol sodir etarmidi. Mazkur holat yuzasidan jinoyat ishi qo'zg'atilgan bo'lib, ayni paytda dastlabki tergov harakatlari olib borilmoqda.

Lavhamiz qahramoni kapitan B. Yuldoshev 2020-yildan buyon ichki ishlar organlarida samarali faoliyat ko'rsatib kelmoqda. U xushmuomalaligi, xizmat vazifasini sidqidildan bajarishi tufayli rahbariyat e'tiboriga tushgan, mahalla ahlining hurmatini, ishonchini qozongan.

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.



Kichik hikoya

Xolida oilaning kenjasi. Undan katta ikki opasi bor. Ular turmushga chiqqach, uquvsizligidanmi, uyida kunda bir muammo chiqardi. Xolida-ning ota-onasi qudalaridan kechirim soʻrayverib, yalinaverib yuragi ham bezillab qoldi.

Opalari onasiga qaynonasidan noliy-verganidan, Xolida turmushga chiqishni ortga surib yurdi. U oʻziga oʻzi: «Men turmushga chiqsam ham, hech qachon qaynonamga xizmatkor boʻlmayman», deya qatʼiy soʻz bergandi.

XIZMATKOR

– Oʻzingiz istagan narsangizni oling. Bu – sizning pulingiz, – dedi u.

oʻtirgan ekan. Egilib salom qildi. Qaynonasi tabassum bilan alik oldi.

– Keling, bolam, – dedi bagʻriga bosib. Quchoqʻi issiq, yoqimli edi.

Xolida qaynonasiga choy quyib, uzatdi. Keyin birga taom tayyorladi. Uy ishlarida yordam berdi. Bir oyda yangi oilasini yaxshi koʻrib qoldi...

Oylikmaoshini olgan kuni uni qaynona-siga berdi. Bu ishni chin yurakdan qildi. Qaynonasi pulni olib, duo qildi-da, keyin yana oʻziga qaytarib berdi.

– Oʻzingiz istagan narsangizni oling. Bu – sizning pulingiz, – dedi u.



Nihoyat, oʻsha kun keldi. Firmada ishlab yurganida hamkasb yigit unga sovgʻi qoʻydi.

Uchrashuvga chiqqanida Xolida yigitga shart qoʻydi: «Men onangizga xizmatkorlik qilmayman, birga yashamayman».

Yigit onasi uni yolgʻiz katta qilganini, ammo Xolida uni tashlab ketolmasligini, ammo Xolida ham sevib qolganini aytib, baribir sovgʻi yuboraverdi.

Taqdir ekan, Xolida unga turmushga chiqdi.

Toʻydan keyin bir-ikki kun yelib-yugurib xizmat qilish Xolida uchun ham qiziq boʻldi. Mehmonlar oldiga choy olib kirish, salom qilish, yosh bolachalarga dastroʻmol tutqazish...

Oʻsha kuni tongda boshiga roʻmol tashlab, salom qilgani chiqdi. Oʻlis-yaqindan kelgan mehmonlar tarqagan. Qaynonasi dasturxon tuzab, deraza oldida oʻychan

Minnatdorlik

MEHR QANOTLARI OSTIDA

Oilada soʻzdan koʻra koʻproq mehr gapiradi, qarashlar esa duoga aylanadi. Men uchun esa oila — bu faqat bir uy emas, balki orzularim qanot yozgan muqaddas qoʻrgʻondir.

Men Xorazmning sokin bir qishlogʻida, orzularga toʻla koʻzlar bilan ulgʻaydim. Bolalikdayoq qalbimda sheʼrlar, rasmlar, bilimga chanqoqlik joʻsh urardi. Har bir kichik yutugʻimda ota-onamning nigohida faxr porlardi. Ular menga «yetar» demadi, «sen qila olasan» deb ishondi.

Sir emas, ayrim oilalarda qiz farzandning yoʻli cheklanadi. Lekin mening hayotimda cheklov emas, ishonch bor edi. Ota-onam mening orzularimni tor yoʻllarga sigʻdirmadi — aksincha, ularga qanot berdi. Shu qanot meni qishloqdan shaharga, orzudan haqiqatga olib keldi.

Bugun men Toshkentda, oliy taʼlim muassasasi talabasi. Ammo har bir qadamimda bir haqiqat meni kuzatib turadi: yolgʻiz emasman. Orqamda duo qilayotgan ota-onam bor. Ular-ning ishonchi men uchun eng ogʻir sinovlarda ham mayoq boʻlib yoʻl koʻrsatadi.

Xalqaro oila kuni menga yana bir bor eslatadi: insonning eng katta boyligi — uni tushunadigan, ishonadigan va sevishdan char-chamaydigan oilasidir. Ota-onam menga faqat hayot bermadi, ular menga qanot berdi. Shu qanotlar bilan orzular sari uchib bormoq-daman. Va men bilaman — qaysi manzilga yetishimdan qatʼi nazar, doimo bir joyga – oilamning mehrlari bagʻriga qaytaman.

Farangiz QURBONOVA,
Oʻzbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiya universiteti talabasi.



2026-yil 17-iyul / juma / № 29 (4775)

BAXT

Oila — bu jazirama boʻronlardan va begona koʻzlardan yashiringan gullab-yashnagan bir bogʻdir. Ammo unutma: bu bogʻ oʻz-oʻzidan oʻsib qolmaydi. U sendan har kungi gʻamxoʻrlikni, sabrni va buyuk kamtarlikni talab qiladi. Yaqinlaring uchun barakali yomgʻir kabi boʻl, ularning ildizlarini muhabbat va hurmat bilan sugʻor.

Umar Xayyom

MANZILI



Tarix guvohki, mustahkam va sogʻlom oilalar hamisha yurt tinchligi hamda jamiyat barqarorligining bosh garrowi boʻlib kelgan.

Inson hayoti aynan oiladan boshlanadi, sevgi va hurmat, baxt va ezgulik shu yerda paydo boʻladi. Aynan oila bizga ilk bor atrofdagi dunyo bilan muloqot oʻtib boradi.

Bu maskanda sevishni, kechirishni, sabr-toqatli boʻlishni oʻrganib, oʻzgalarga gʻamxoʻrlik

qilish, mehr koʻrsatish nimani anglatishini bilib olamiz. Oila biz uchun shunday boshpanaki, unda ogʻir damlarda suyanch va dalda topsak, muvaffaqiyatga erishganimizda quvonchimizni baham koʻramiz.

Oila – odamzodning eng katta boyligi. U inson oʻz qoʻli bilan yaratishi mumkin boʻlgan eng katta baxt manzildir.

MUHABBAT VA MAS’ULIYAT BILAN

Urgut tumani IIB JXX HPB xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektori, podpolkovnik Zulfiya Yuldoshevaning har bir kuni yangi uchrashuvlar, murojaatlar, inson taqdirlari bilan bog'liq. Chuqur bilim, tajriba, sabr va bag'rikenglik talab etiladigan zimmasidagi vazifalarini u muvaffaqiyatli ado etmoqda. Buning ortida mehrga to'la yana bir olam – oila ham bor.

Zulfiya Yuldosheva va Muzaffar Madiyevning muhabbati IIV Akademiyasida tahsil olgan yillarida boshlangan. Intizomli hayot va umumiy maqsadlar ikki yosh qalbni bir-biriga yaqinlashtirdi. O'sha yillarda kurtak yozgan samimiy tuyg'ular vaqt sinovlaridan o'tib, bugun mustahkam va baxtli oilaga aylandi.

Hozir bu oilada to'rt nafar farzand – Dilruza, Islomxo'ja, Dilnura va Muzaffar hammadxo'ja ota-ona mehriini his qilib ulg'aymoqda. Ular maktabda bilim olish bilan birga, ingliz va rus tillarini o'rganish-yapti. Gimnastika va karate mashg'ulotlari esa bolalarning jismoniy chinqishi, iroda va intizom fazilatlarini shakllantirishida muhim o'rin tutmoqda.

Qahramonimiz xizmat va oila-ro'zg'or ishlaridan yengish mumkin. Shu bilan

birga, oilada o'zaro hurmat, ishonch va qo'llab-quvvatlash ham juda muhim. Ota-onamning bergan ta'lim-tarbiyasi, qaynona-qaynotamning duolari va turmush o'rtog'ining ko'magi bilan kasbimda shu darajaga erishdim, – deydi Z.Yuldosheva.

Muhabbat bilan boshlangan hayot yo'li bugun mas'uliyat, sadoqat va

Umida MAMADALIYEVA,
o'z muxbirimiz.
Samarqand viloyati.

OILA SABOQLARI

Otang yaxshi odam edi, degan gap o'ylashga, bolang yaxshi odam bo'libdi, degan gap esa o'ynashga arziydi.

Nodon bola ortiqcha barmoqqa o'xshaydi. Kesib tashlayin desang og'riydi, kesmasang uyaltiradi.

Ona bir ko'zi bilan farzandining o'n fazilatini ko'radi, bola esa ikki ko'zi bilan onaning o'ndan bir fazilatini ham ko'rmaydi.

«Ko'ngil dasturxon emas, uni hammaga ochib bo'lmaydi. Eng

oson ish maqtanish, eng qiyin ish esa maqtanishga arziydigan ishni bajarish yoki el orasida hurmatga, obro' – e'tiborga erishish. Mana bu gaplarning mag'zini chaq bolam», – derdi rahmatli otam.

Shuhrat RO'ZIYEV

Mutaxassis maslahati

Oila — muqaddas maskan. Unda muhabbat, ishonch, mehr va o'zaro hurmat hukm sursa, hayot mazmunli va baxtli kechadi. Ammo ba'zan tushunmovchilik, sabrsizlik va e'tiborsizlik tufayli eng yaqin insonlar orasiga ham sovuqlik tushishi mumkin.



GO'ZAL HAYOT POYDEVORI

Baxtli oila o'z-o'zidan shakllanmaydi. U sabr-toqat, mehr-muhabbat, o'zaro hurmat va har ikki tomonning doimiy harakati bilan barpo etiladi. Bir-birini qadrlagan insonlar har qanday qiyinchilikni yengib o'ta oladi.

BIR-BIRINGIZNI ESHITING

Ko'pchilik oilaviy nizolarning asosiy sababi — er xotinning bir-birini tinglamasligi. Inson o'zining tinglanmayotganini his qilsa, ich-ichidan raniydi. Shuning uchun juftliklar har kuni bir-biriga vaqt ajratib, dardini, quvonchini va tashvishlarini o'zaro baham ko'rishi kerak.

KECHIRISHNI O'RGANING

Hech kim mukammal emas. Har bir inson xato qiladi. Muhimi, o'z xatosini tan olish va juftining xatosini kechira bilish. Kechirimlilik

BIRGALIKDA VAQT O'TKAZING

Hozirgi tezkor zamonda odamlar turmush tashvishlari bilan band bo'lib, o'z juftlariga kam vaqt ajratishi mumkin. Vaholanki, tabiat qo'ynida birgalikda sayr qilish, bir dasturxon atrofida choy ichish yoki samimiy suhbat ham munosabatlarni yaqinlashtiradi.

MINNATDORLIK BILDIRING

Kichik e'tibor ham o'zaro munosabatlarda katta ahamiyatga ega. «Rahmat», «Sizni qadrlayman», «Siz bilan baxtliman» kabi so'zlar inson qalbiga iliqlik bag'ishlaydi. Hamisha farzandlaringiz uchun eng yaxshi namuna bo'lishingiz kerak. Chunki bolalar ota-onasining o'zaro munosabatlaridan hayot saboqlarini oladi. Agar oilada mehr, hurmat va ahillik muhiti hukm sursa, farzandlar ham shu qadriyatlar asosida tarbiya topadi.

Gulsara BOBOQULOVA,
Navoiy viloyati IIB JXX HPB
Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazi inspektor-psixologi, kapitan.

Farzandimning yutugʻi

ORZU SARI DADIL QADAM

Buxoro viloyati IIB JXX YHXB Texnika nazorati boʻlimi yetakchi mutaxassisi, podpolkovnik Alijon Teshayev jamoat tartibini saqlash, yoʻl harakati xavfsizligini taʼminlash, yoʻlovchi tashish bilan shugʻullanuvchi korxona va tashkilotlar bilan hamkorlikni yoʻlga qoʻyish hamda transport vositalarining texnik koʻrigini oʻz vaqtida tashkil etish ishlarida samarali mehnat qilib kelmoqda.



Uning dilbandi Azizjon Orifov esa maktab dasturidan tashqari, ingliz tili, tarix, matematika, ona tili va adabiyot fanlarini chuqur oʻzlashtirish maqsadida oʻzlashtirish maqsadida qoʻshimcha mashgʻulotlarda ishtirok etib, qator sertifikatlarga sazovor boʻldi.

Uning bilim va intilishi munosib baholanib, viloyat IIB rahbariyati tomonidan IIV Akademiyasiga oʻqishga kirish uchun imtiyozli tavsiyanoma topshirildi.

– Bu men uchun katta ishonch va yuksak masʼuliyat, – deydi Azizjon. – Si-

faxrlanaman, – deydi podpolkovnik A.Teshayev.

Shubhasiz, xodimlarning farzandlariga yaratilayotgan bunday imkoniyatlar bilimli, intizomli va vatanparvar yoshlarning orzu-maqсадlarini roʻyobga chiqarishga, kelgusida esa yurtimiz tinchligi va osoyishtaligi yoʻlida xizmat qiladigan munosib huquq-tartibot posbonlari boʻlib yetishishiga mustahkam zamin yaratmoqda.

Mirzoqul AHADOV, oʻz muxbirimiz. Buxoro viloyati.

SUGʻORILMAGAN PIYOZ



olardim. Men ularning xatolariga koʻz yumardim, axir, ular mening vaqt ajratolmayotganimni kechirishayapti-ku. Ammo begʻubor bolalik tezda oʻtib ketdi. Endi qiyin oʻsmirlik davri boshlangandi. Bolam meni ayblar, jizzaki boʻlib qolgandi. Men dahshatli haqiqatni tushunib yetdim. Bolalarim muhabbatsiz katta boʻlishayotgan ekan. Men ularning tarbiyasi bilan shugʻullanmaganim yetmagandek, ularga yaxshi va yomonni farqlashni ham oʻrgatmagan ekanman.

Bir kuni oshxonada piyoz artarkanman, piyozning achchigʻidan

koʻzimdan yosh chiqib ketdi. Koʻzimni artayotganimda oshxonaga kirib qolgan onam, nimaga yigʻlayapsan, deb soʻradi.

– Shunchaki, piyoz achchiq ekan, – dedim.
– Ha, uni kam sugʻorishgan ekan-da. Yaxshi suv ichmagan piyozning taʼmi ham shunaqa achchiq boʻladi. Men muhim haqiqatni tushundim: agar farzand qalbi yoshligidan mehr bilan «sugʻorilmasa», u kelajakda koʻp koʻz yosh toʻkishimizga sababchi boʻladi.

Osiyo tayyorladi.

BUNDAY TAʼTIL – KOʻNGILGA TATIR



Jizzax viloyati IIB JXX Yoʻl harakati xavfsizligi boshqarmasi YPX 4-safarbarlik guruhi inspektori, safdor Ixtiyor Shodmonov bu yilgi mehnat taʼtilini toʻlaligicha oʻz uyida, oilasi bagʻrida oʻtkazishga qaror qildi. Bundan, ayniqsa, uning oʻgʻillari – Imronbek va Nurmuhammad cheksiz quvondi. Boisi, farzandlar uchun otaning uyda boʻlishi haqiqiy bayramdir.

Ayni kunlarda – ertalabki nonushta ota bilan bir dasturxonda, hovlidagi oʻyinlar, suhbatlar birga. Bolalar uchun otasi bilan suhbat qurish, birga toʻp tepish, basseynida choʻmilish yoki shunchaki yonma-yon yurishning oʻzi katta quvonch. Turmush oʻrtogʻi Zahro ham bundan mamnun. Chunki u ham

turmush oʻrtogʻining ishi naqadar masʼuliyatli ekanini tushunsa-da, oilada birgaligidan koʻngli shod.

Darhaqiqat, ichki ishlar idoralari xodimlari uchun mehnat taʼtili – faqat dam olish emas. Bu oila bilan oʻtkazilmagan vaqtning oʻrnini toʻldirish, farzandlari, ota-onasi, turmush oʻrtogʻi va yaqinlari bagʻrida maʼnaviy kuch toʻplash imkoniyatidir.


Har kuni xizmatga ishonch bilan otladi.

Muqaddas SAPAROVA, oʻz muxbirimiz.

Jizzax viloyati.

Soha fidoyisi

«NETAY, BOLAMNI SOGʻINSAM?»



Oqoltin tumani IIB XQMB katta inspektori, leytenant Zarnigor Allayorova shu oilaviy nizolar bu qadar murakkab va chigal boʻladi, deb oʻylamagan edi.

nonasiga shikoyat qildi. Af-suski, ular oʻgʻining tarafini olishdi. Chorasiz qolgan ayol ikki nafar farzandini bagʻriga bosib, Chinozga – togʻasini-

ga ketishga majbur boʻldi. Olti oycha sarson boʻlib togʻasini nikida yashadi. Mavsumiy ishga chiqib bolalarini boqdi. Ammo baʼzan uyida qolgan kichik oʻgʻlini sogʻinib yigʻlardi. Bir kuni koʻz yoshlarini tiya olmay togʻasiga: «Netay, bolamni sogʻinsam» – dedi.

Uning ezilayotganini koʻrgan togʻa Oqoltin tuman IIBga murojaat qildi.

Zarnigor mahalla raisi, xotin-qizlar faollari, nuroniylar hamda oilaning kattalarini bir davrarga jamladi. Holatni obdan tushuntirib, kelinni bolalari bilan qaytarib kelishga erishdi. Togʻa mulohazali, oqil

inson boʻlgani uchun jiyani oʻzi olib keldi. Oila yana but boʻldi.

Zarnigor Allayorova shu bilan toʻxtamadi. Ertasi kuni yana shu oilaning holidan xabar oldi. Oila boshligʻi ishga chiqib ketgan ekan. U ayolni yetaklab maktabga keldi. Birgalikda ikki nafar bolani sinflariga qayta joylashtirishdi.

Yosh leytenant qiz bugun yana boshqa mahallada, yana boshqa bir oilada. Xuddi shunday tashvishlar bilan yuribdi. Maqsadi ezgu. Oilalar but boʻlsin, ona bolasini, bola onasini sogʻinib koʻzidan yosh oqmasin.

Abdurahmon MUSTAFOQULOV, oʻz muxbirimiz.

Sirdaryo viloyati.

XIZMATDA HAM, HAYOTDA HAM YELKADOSH

Ichki ishlar vazirligi Orkestrlar xizmati boshlig'i – bosh dirijyor podpolkovnik Muqimjon Mahmudovdan oiladagi baxt va xotirjamlik siri haqida so'rasangiz, u hech ikkilanmay, ayolning matonati hamda xonadondagi o'rnini tilga oladi. Bu e'tirof zahirida nafaqat cheksiz muhabbat, balki chorak asrdan ortiq vaqt sinovdan o'tgan chuqur hurmat va sadoqat mujassam.

Yigirma olti yildan buyon ahil-inoq hayot kechirib kelayotgan Muqimjon Mahmudov va uning umr yo'ldoshi – IIV Markaziy gospitali Tashkiliy-uslubiy va tahlil bo'linmasi boshlig'i, mayor Gulnoza Mahmudova bugun ko'pchilikka haqiqiy ibrat namunasidir. Ular nafaqat hayotda, balki xizmatda ham safdosh bo'lib, kasbiy pillapoyalardan birga yuqorilab borishmoqda.

Muqimjon Mahmudov bilan oila haqida suhbatlashar ekansiz, uning rafiqasiga bo'lgan ehtiromdan qalbingiz quvonchga to'ladi:

– Ayolim uydagi muhitni ham, bolalar tarbiyasini ham, ishdagi mas'uliyatli vazifalarini ham birdek a'lo darajada uddalab kelmoqda. U juda pazanda va oqila. Aslida, agar er-xotin bir maqsad sari intilsa, bir-birini so'zsiz tushunsa, bunday oilada hech qachon tushunmovchilik yoki ko'ngilxiralik bo'lmaydi.

Bor e'tibori va kuch-g'ayratini

farzandlarining ta'lim olishiga yo'naltirgan ota-ona bugun bu-ning shirin mevasini totmoqda.

To'ng'ich o'g'il Azizbek Angliyadagi nufuzli oliy o'quv yurtining magistratura bosqichida tahsil olayotgan bo'lsa, Gulsanamxon Toshkentdagi Vestminster xalqaro universitetining 3-kurs talabasi. Kenja qiz Mohlaroy esa umumta'lim maktabining 7-sinfi-

da o'qiydi. U ham akasi va opasiga ergashib, yuksak cho'qqilarni ko'zlamoqda.

Yelkama-yelka xizmat qilib, uyga qadam qo'yganda jonkuyar va bolajon ota-onaga aylanadigan bu juftlikning hayot yo'li – Vatanga va oilaga bo'lgan sadoqatning eng go'zal timsolidir.

Aziza BOXODIROVA,
mayor.



Dil izhori

HAMMAMIZ JAM BO'LGAN KUN...

Men ichki ishlar organi xodimining rafiqasiman. Albat-ta, bu so'zlar zamirida katta sabr, matonat, sog'inch va shu bilan birga, cheksiz faxr tuyg'usi mujassam ekanini faqat shunday hayotni boshidan kechirayotgan insongina his eta oladi.

Turmush o'rtog'im – Qiziriq tumani IIB Tashkiliy bo'linmasi murojaatlar bilan ishlash guruhi katta inspektori, mayor Ilhom Hamroyev bilan oila qurganimizga 13 yil to'ldi. Shu yillar davomida bir haqiqatni anglab yetdim: xizmat kiyimini kiygan inson faqat o'z oilasi baxti uchun emas, balki xalq osoyishtaligi uchun ham yashar ekan.

Turmush o'rtog'im tabiatan juda samimiy va oqko'ngil inson. Eng qadrlil fazilati, meni doim tinglay oladi, fikrlarim bilan hisoblashadi.

Murakkab vaziyatlarda «Qanday muammo bo'lmasin, albatta birga hal qilamiz», deya menga dalda beradi.

O'zim ham mas'uliyatli kasb egasiman – Jarqo'rg'on tumanidagi 45-davlat maktabgacha ta'lim tashkilotida oliy toifali tarbiyachi bo'lib ishlayman. Bolalar bilan ishlash kishidan katta mehr va sabr talab qiladi. Ba'zan ishdan charchab ke-laman. Shunday paytlarda turmush o'rtog'imning bir og'iz iliq so'zi hamma charchoqlarimni unutturadi.



Bo'sh vaqti kam bo'lishiga qarkishi hazil aralash eslab turadi, men ramay, umr yo'ldoshim bolalar tarbiyasiga aslo befarq emas. Har bir farzandining qiziqishi, o'qishi, kayfiyati bilan qiziqadi. Juda bolajon. faxrga aylanib ulgurgan.

“

Bilsangiz, ichki ishlar organi xodimi xonadonida bayramlar, qutlug' sanalar, tug'ilgan kunlar o'zgacha o'tadi. Ko'pincha bu kunlarda turmush o'rtog'im uyda emas, xizmatda qarshi oladi. Oilaviy hayotimizning ilk yillarida bunga ko'nikish biroz qiyin kechdi. Ammo vaqt o'tib tushundimki, u kishini intizor bo'lib kutayotgan yolg'iz biz emasmiz. Shuning uchun bayramlarni aynan taqvimda belgilangan kunda nishonlay olmasak-da, oilamiz to'liq jam bo'lgan har bir kunni o'zimiz uchun haqiqiy bayram deb bilamiz. Xizmatdan sog'salomat qaytgach, to'rt nafar farzandimiz bilan dasturxon atrofida yig'ilamiz. Ana shu oddiy va samimiy lahzalar – oilamizning eng katta baxti.

Ochig'i, turmush qurishimizdan avval yaqinlarim: «Ichki ishlar xodimiga turmushga chiqma, umring uni kutish bilan o'tadi», deyishgan. To'g'ri, hayotimizda kutishlar ko'p bo'ldi – kechki ovqatlarda, bayram oqshomlarida, hatto hayotimizning eng muhim kunlarida ham uni intizorlik bilan kutdik. Lekin men turmush o'rtog'imning kasbi yoki lavozimini emas, pok qalбини, samimiyligini tanlaganman. Hozir ba'zan ortda qolgan o'sha gap-so'zlarni u

Lobar RAHMONOVA
Surxondaryo viloyati.

В службах и подразделениях

С УВАЖЕНИЕМ К ЛЮДЯМ

Чтобы каждый обратившийся остался доволен — цель сотрудников ГМИП при ОВД Мирзаабдского района Сырдарьинской области.

— В районе проживает порядка 90 тысяч человек, — говорит начальник подразделения капитан Хатам Холбутаев. — Стремимся организовать работу так, чтобы исключить очереди и суету. Цифровые платформы «Manzil», «E-mehmon», «Паспорт-виза» ускоряют процесс обработки данных, минимизируют человеческий фактор. Вместе с коллегами — инспекторами сержантом Маликой Муродовой, рядовым Хусаном Эсонбоевым — ежедневно оформляем порядка 70 ID-карт и около 20 загранпаспортов.

Среди посетителей значительную часть составляет молодежь. Особая группа — те, кому впервые выдается ID-карта гражданина Узбекистана. С начала года в районе свыше тысячи юношей и девушек получили этот документ. Учитывая значимость события, сотрудники неизменно стремятся придать моменту вручения торжественность.

Важный аспект — профилактическая работа.

— В ходе встреч в махаллях Нурафшон, имени Мирзо-Улугбека разъяснили жителям необходимость ответственного отношения к документу, удостоверяющему личность, соблюдения соотечественниками, иностранными гостями и лицами без гражданства установленных правил, — отмечает капитан Х. Холбутаев. — Кроме того, в рамках таких диалогов рекомендуем гражданам, планирующим трудоустроиться за рубежом, обращаться в Агентство миграции, ознакамливаясь с процедурами отбора. На примерах рассказываем о рисках взаимодействия с «посредниками». В случае утери паспорта или ID-карты за пределами Родины необходимо

обратиться в дипломатическое представительство или консульское учреждение республики для получения сертификата на возвращение.

— Организуется ли выездное обслуживание для лиц с инвалидностью, пожилых, — обращаемся с вопросом к инспектору ря-



довому Х. Эсонбоеву. В подразделении он служит с 2023 года, системно осваивает новые программы, но самое главное — умеет найти подход к каждому заявителю.

— Конечно, — отвечает инспектор. — Недавно посетили дом Замиры Хакимовой. Она проживает махалле Навруз. С помощью портативного мобильного оборудования оформили ей ID-карту, избавив от лишних хлопот.

Подобный подход способствует подразделению эффективно решать задачи по обеспечению законных прав и интересов личности.

Радик ТУМΠΑРОВ,
соб. корр.

Сырдарьинская область.

По маршрутам духовности

СОХРАНИТЬ ДЛЯ ПОТОМКОВ

Древняя Бухара расположена на перекрестке Великого шелкового пути. Это ключевой узел, где сходятся торговые маршруты Запада и Востока. В городе-музее гармонично сочетаются шедевры древней архитектуры и динамичная жизнь туристического центра.

Приоритетным направлением здесь является сохранение культурного наследия. Исторические объекты восстанавливаются в их первоначальном виде, что позволяет сберечь творения предков.

Сегодня на территории Бухарской области 660 памятников культуры, из них 231 археологический, 364 архитектурных, 19 монументальных, 22 архитектурных ансамбля, 24 заповедные территории. На территории Бухары сосредоточено 300 исторических архитектурных объектов.

Город, в отличие от других древних центров Узбекистана, выделяется особым разнообразием архитектурных памятников: караван-сарай, мавзолеи, мечети, хаузы, минареты, торговые купола, жилые кварталы. Неудивительно, что он включен в список Всемирного наследия ЮНЕСКО, а поток туристов и паломников сюда нескончаем.

— Сохранение архитектурных памятников осуществляется в рамках программы по реставрации объектов культурного наследия и защите исторической градостроительной и ландшафтной среды, — отмечает заместитель начальника Бухарского областного управления Агентства культурного наследия Азиз Джурраев. — Без глубокого анализа, исследований и кропот-

ливой работы ученых, архитекторов, народных мастеров невозможна достоверная реставрация. Только такой подход позволяет избежать искажений и ошибок.

Своеобразие комплексов Бухары заключается в их архитектурном многообразии, отражающем исторический след. Сегодня гости



города могут увидеть в первоначальном облике такие монументальные

образцы, как медресе Улугбека, мечети Масжиди Калон, комплексы Ходжа Таббанд, Пои Остона, Халифа Худойдод. Работы проведены на Чор-Бакр, медресе Кукельдаш, Тошсарой. Ведутся научно-исследовательские исследования по реставрации бывшего здания Бухарского областного театра музыкальной драмы (известный как Народный дом), а также реставрационные работы в удивительном по красоте дворце эмира Бухарского (архитектор Алексей Бенуа) в Кагане.

Масштабная деятельность по сохранению архитектурных и исторических памятников продолжается. Ее цель — сберечь уникальное наследие для будущих поколений.

Асатилло КУДРАТОВ,
журналист.

История одного снимка

ТЕ, КТО НЕ ОТСТУПИЛ

На снимке запечатлен момент, словно сошедший с экрана боевика. Но здесь все по-настоящему. Сотрудники УУР ГУВД г. Ташкента едут на задержание рэкетира. Салон служебного транспорта, оружие в руках... Так выглядела реальность для тех, кто стоял на страже закона в тот непростой период.

Воспоминаниями делится ветеран — ныне полковник в отставке, доктор юридических наук, про-

фессор Алимжан Матчанов (на фото — во втором ряду справа):

— Да, это мы в далеком 1990 году, когда служили в отделе по борьбе с организованной преступностью. Рядом со мной сослуживцы — Олег Биченов и Фарход Курбанов. Бурные были времена...

Фото зафиксировало мгновение — за шаг до столкновения с криминалом.

Рафик ЕНИКЕЕВ.



Фото из архива.



www.youtube.com/@Postda_IIV



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.instagram.com/postda.uz

Public dialogue



OPEN SYSTEM – SAFE SOCIETY

The Ministry of internal affairs held a press conference entitled «Openness and public dialogue as the main principle: Analytical report on the activities of the internal affairs bodies for the first half of the current year.» The event focused on reforms in crime prevention, digitalization, road safety, and the protection of women and minors. Deputy minister of internal affairs, colonel Ramazon Ashropov, together with senior officials, answered questions from representatives of the media.

According to the report, during the first half of 2026, no crimes were recorded in 5,778 mahallas, accounting for 64 percent of all mahallas nationwide. At the same time, 2,738 mahallas were classified as «yellow» and 476 as «red» based on the crime situation.

During the reporting period, 8,653 criminal cases related to the illegal trafficking of narcotic drugs were identified. Law enforcement agencies seized 2 tons and 733 kilograms of narcotic

substances, including more than 52 kilograms of synthetic drugs and 2.651 million potent pharmaceutical tablets.

The Ministry of internal affairs received more than 200,000 public appeals, 87 percent of which were resolved positively. Operational units also apprehended 5,010 individuals who had been evading investigation or court proceedings.

The compliance service detected 75 percent of all employee-related misconduct cases within the ministry, while 36 officers who demonstrated determination in combating corruption were rewarded.

During the current year, 18 officers lost their lives in the line of duty, and 78 officers were injured while performing their official responsibilities. In addition, 100 percent of interrogation rooms have been equipped with video surveillance systems, further strengthening the protection of human rights within the criminal justice process.

Pages of history

HOW WAS THE INTERNAL AFFAIRS BUILDING CONSTRUCTED?

The central administrative building of the Ministry of internal affairs of the Republic of Uzbekistan is one of the important architectural landmarks of the capital.

Due to the expansion of the city and reforms within the internal affairs system, the need arose to

reinforcement works were carried out due to groundwater challenges. Specialists from the «O'zNIIPshaharsozlik» institute worked on the project. After the 1966 Tashkent earthquake, the building's seismic resistance was further strengthened. Architect

Richard Blase also took part in this process.

Construction, which began in 1965, was completed in 1971 by «Glavtashkentstroy», after which the ministry's staff moved into the new complex. In 1974, the first departmental museum of the internal affairs



construct a new building, and a site was allocated in Yakkasaray District. Design and construction works began in 1965 under the leadership of the then minister of internal affairs, lieutenant general Haydar Yahyoyev.

Since the site was located near the Anhor canal, special founda-

bodies was established inside the building.

As a result of reconstruction works carried out in 2000–2010, the complex was modernized in accordance with contemporary requirements. Today, it serves as one of the key administrative centers of the internal affairs system.

Mahalla life

MAJOR CHANGES IN «OZGARISH»

The «Ozgarish» mahalla in Sergeli district has become a successful example of the reforms being implemented across Uzbekistan. The recent visit of the President of the Republic of Uzbekistan highlighted the special attention being given to the neighborhood's development.

Established in 2004, the mahalla is home to 1,620 households and 6,700 residents. According to Dono Miraliyeva, chairperson of the mahalla citizens' assembly, the President's visit has inspired residents to work with even greater dedication and pursue new initiatives.

Employment has been fully ensured in the neighborhood. Continuous support is being provided to 48 families registered in the Social register, 112 persons with disabilities, and 148 women included in the Women's register. In addition, 56 small business enterprises, a library, and sports facilities contribute to the community's social and economic development.

Thanks to the dedicated work of lieutenant Aziz Buriyev, the local prevention inspector, and the active participation of residents, no crimes have been recorded in the mahalla since the beginning of the year. As a result, «Ozgarish» mahalla has been classified as a «green» neighborhood and has become a model of a safe and prosperous community.



Innovation

DIGITALIZATION AND SECURITY

Senior inspector of the Crime prevention division of the Public safety service under the Chiroqchi district DIA, senior lieutenant Orol Abduvaliyev, is contributing to improving the efficiency of law enforcement through his initiatives in information technology.

To combat cybercrime, he developed the «AsiQalqon» mobile application, which has already been introduced into practice. The application prevents the installation of dangerous APK files on devices and alerts users about possible viruses, malicious links, and suspicious groups distributed through Instagram, Imo, and Telegram. It also analyzes applications that have access to SMS and call services and assesses their level of security.

Another innovation created by Orol Abduvaliyev is the «Tezkor xabarlar»

mobile application, which enables rapid information exchange among internal affairs officers. The application allows daily assignments,

service-related information, and important alerts to be delivered promptly. Automatic notifications confirming that a message has been read further improve the effectiveness of the system.

According to the developer, the application also includes a special warning system aimed at

ensuring compliance with service discipline, preventing corruption, and avoiding conflicts of interest.

The use of modern digital solutions plays an important role in improving the activities of internal affairs bodies, strengthening public safety, and preventing crime at an early stage.



Translated by Munavvar RASHIDOVA, docent.

IZQUVARNING UMR DAFTARI

Har bir jinoyatdan iz qoladi. Ana shunday izlarni o'qishni umrining mazmuniga aylantirgan insonlardan biri — ichki ishlar organlari faxriysi, «Jasorat» medali sohibi, iste'fodagi polkovnik Nasriddin Abdazovdir.

SHARAF YO'LI

Nasriddin Abdazov ichki ishlar organlaridagi mehnat faoliyatini 1984-yili Zangiota tumani IIB tezkor-qidiruv xizmatida boshlagan. Shu tumanda yigirma yildan ortiq xizmat qilib, jinoyatlarni fosh etish, tezkor-qidiruv tadbirlarini amalga oshirish hamda murakkab operativ vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish bo'yicha katta tajriba orttirgan.

Keyinchalik Qibray tumani IIB boshlig'ining birinchi o'rinbosari lavozimida faoliyat yuritib, rahbarlik salohiyatini yanada mustahkamlagan. Shundan so'ng Toshkent viloyati IIB jinoyat qidiruv xizmati boshlig'i, viloyat IIB boshlig'ining 1-o'rinbosari lavozimlarida ishlagan. 2015-yili ko'p yillik samarali va fidokorona xizmat yo'lini sharaf bilan yakunlagan.

RAHBARLIK FAOLIYATI VA TAJRIBA MAKTABI

U rahbarlik faoliyati davomida asosiy e'tiborni jamoa bilan ishlash, xodimlar o'rtasida intizom va hamjihatlikni mustahkamlash, shuningdek, tezkor xizmat sifatini oshirishga qaratgan. Shu bilan birga u yosh xodimlar tayyorlash va ularga amaliy ko'nikmalarni o'rgatish masalasiga alohida ahamiyat bergan.

Rahbar sifatida xodimlarga nisbatan talabchan, biroq ayni paytda tushunish va kechirimlilik tamoyillariga ham amal qilgan. Uning fikricha, mayda xatolarni to'g'ri tushuntirish orqali tuzatish mumkin, ammo qo'pol qonunbuzarliklarga nisbatan qat'iy chora ko'rish zarur.

USTOZLAR VA SHOGIRDLAR

Uning xizmat yo'lida ustozlardan o'rganish muhim o'rin tutgan. U turli davrlarda tajribali rahbarlar va ustoz tezkor xodimlardan amaliy saboq

olib, o'z kasbiy mahoratini shakllantirgan. Xususan, Akobir aka, Bahodir Xolmatov, Rustam Abbosov, Ravshan Zikriyayev, Abdumajid Mullajonovlarni haligacha minnatdorlik bilan eslaydi. Xizmat davomida keyinchalik o'zi ham ko'plab shogirdlar yetishtirdi. Ularning ayrimlari hozirgi kunda ham tizimda faoliyat yuritib, turli lavozimlarda xizmat qilmoqda. Hali hamon yosh xodimlar undan maslahat so'rab kelishadi. U esa avvalo, hujjat bilan ishlashni puxta o'zlashtirishni tavsiya etadi. Chunki ichki ishlar organi tizimida har bir harakat qonun va rasmiy hujjat bilan asoslangan bo'lishi shart. Yosh xodimlar qonunchilikdagi yangiliklar, sohaga oid buyruq va qa-



shundagina haqiqiy mutaxassis sifatida shakllanish mumkinligini alohida

Iste'fodagi polkovnik Nasriddin Abdazov tezkor xodim faoliyatining quyidagi beshta asosiy tamoyilini keltiradi:



QONUN USTUVORLIGI

Har qanday tezkor xizmat faoliyati amaldagi qonunchilik talablari asosida va qonun doirasida amalga oshirilishi lozim.

SIR SAQLASH (MAXFIYLIK)

Tezkor-qidiruv faoliyatiga oid ma'lumotlar, xizmat sirlari va manbalarning maxfiyligi qat'iy ta'minlanishi shart.

TEZKORLIK VA ANIQLIK

Vaziyatni tezkorlik bilan baholash, asosli qaror qabul qilish hamda uni o'z vaqtida va aniq bajarish faoliyat samaradorligini ta'minlaydi.

XOLISLIK VA ADOLAT

Tekshiruv va tergov jarayonida qonuniylik, xolislik va adolat tamoyillariga qat'iy rioya qilinishi, shaxsiy munosabatlar yoki manfaatlar qaror qabul qilishga ta'sir etmasligi kerak.

KUZATUVCHANLIK VA SINCHKOVLIK

Har bir holatni diqqat bilan tahlil qilish, mayda detallarga e'tibor qaratish orqali muhim dalillar va izlarni aniqlash imkoni yaratiladi.

rorlarni muntazam o'rganib borishi va o'z ustida tinmay ishlashi lozimligini,

ta'kidlaydi. Uning fikricha, haqiqiy tezkor xodim hududini, odamlarini va ularning muammolarini yaxshi bilishi kerak. Axborot ham, ishonch ham xalq bilan muloqot orqali shakllanadi. Shu bilan birga, u zamonaviy texnologiyalar ichki ishlar organlari faoliyatini ancha yengillashtirganini e'tirof etadi. Lekin hech qanday texnika xodimning bilimi, tajribasi va mas'uliyatining o'rnini bosa olmaydi. Uning ta'biri bilan aytganda, umri davomida o'rganishdan to'xtamaydigan xodim haqiqiy mutaxassis bo'ladi.

PROFILAKTIKA — ASOSIY POYDEVOR

Nasriddin Abdazov profilaktika ishlariga alohida e'tibor qaratganini eslaydi. Jinoyat sodir etishga moyil deb hisoblangan shaxslar doimiy nazoratda bo'lar, ular bilan muntazam profilaktik suhbatlar o'tkazilardi. Bu suhbatlar jazolash uchun emas, balki insonni xatodan qaytarish, to'g'ri yo'lga boshlash maqsadida tashkil etilardi. Qizig'i shundaki, ayrimlar bu gaplarga quloq tutmay, sodir etgan jinoyati uchun jazoni o'tab qaytgach, Nasriddin Abdazovning haq ekanini tan olgan va endi halol hayot kechirishga va'da berganlari ham ko'p bo'lgan.

— Ayrim holatlarda tizim va uning xodimlariga nisbatan bir yoqlama munosabat shakllanadi, — deydi u. — Unutmazlik kerakki, ichki ishlar organi xodimi, eng avvalo, qonunchilik manfaatini himoya qiladi. Qonun oldida hamma teng bo'lgani uchun xizmat vazifasini bajarishda yon bosish yoki shaxsiy munosabatga o'rin bo'lmasligi kerak. Aks holda, adolat mezoniga putur yetadi.

Suhbatdoshimiz yana bir muhim jihatga e'tibor qaratib, ayrim xodimlarning xatosi butun tizim faoliyatiga baho berish uchun asos bo'lmasligini aytadi. Zero, jamoat xavfsizligi va yurt osoyishtaligi yo'lida o'z burchini halol va vijdonan ado etayotgan, tunni kunga ulab xizmat qilayotgan minglab xodimlar bor.

TINCHLIK — ENG ULUG' NE'MAT

Uning so'zlariga ko'ra, tinchlikni saqlash faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar zimmasidagi vazifa emas. Bu — har bir fuqaroning vijdoni va mas'uliyati bilan bog'liq umummilliy burch. Har qanday shubhali holatga

(Oxiri 18-betda).



Arxivdan olingan surat.

IZQUVARNING UMR DAFTARI

(Davomi. Boshlanishi 17-betda).

befarq bo'lmalik, jamoat xavfsizligiga daxldor masalalarda faol fuqarolik pozitsiyasini namoyon etish muhim. «Tinch yurtga to'y yarashadi», degan xalqona hikmatni eslarkan, u yurtimizdagi osoyishtalik uchun shukr qilish, uni asrash va kelajak avlodga yetkazish har birimizning muqaddas burchimiz ekanini ta'kidlaydi.

OILA VA HAYOTIY QADRIYATLAR

Uzoq yillik xizmat faoliyatida oila hamisha katta tayanch va quvvat manbayi bo'lib kelgan. U turmush o'rtog'ining sabr-toqati va fidoyiligini alohida qadrlaydi. Ular birgalikda Sardor, Eldor va Durdonani voyaga yetkazishgan. Farzandlaridan Sardor ichki ishlar organlari tizimida xizmat qilib nafaqaga chiqqan.

— Oila — nafaqat shaxsiy hayotning bir qismi, balki kasbiy muvaffaqiyatning muhim poydevoridir, — deydi

Nasriddin Abdazov. — Oilada tinchlik va o'zaro tushunish bo'lmasa, xizmatda yuqori natijalarga erishish qiyin kechadi.

SINCHKOV NIGOH SOHIBI

— Nasriddin har qanday topshiriqqa mas'uliyat bilan yondashib, mehnatdan va o'z ustida ishlashdan qochmasdi, — deydi Namangan viloyati IIB boshlig'i maslahatchisi, iste'fodagi polkovnik Rustam Abbosov. — U jamoani bir yoqadan bosh chiqarib ishlashga unday olardi. Juda ko'p jinoyatlarni fosh etishda fidoyilik ko'rsatgan. Uning sinchkov nigohidan uncha-muncha narsa yashirin qolmasdi.

Zangiota markazi, Eshonguzarga yetmasdan bir dala hududidan murda topiladi. Avval ov miltig'idan marhumning bosh qismiga o'q uzilgan, so'ngra ustiga benzin quyib yoqib yuborilgan. Jasad shu darajada yonib ketgandiki, uning shaxsini aniqlash juda qiyin edi.

Hatto rahbariyat ham bu jinoyatning ochilishiga unchalik ishonmagan. Lekin ishchi guruh bu ishni oxiriga yetkazishga qaror qiladi.

Voqea joyini o'rganish chog'ida Nasriddin 10–15 metr narida bir tashrif qog'ozini topadi. U Chimkentdagi bir park direktoriga tegishli edi. Shu mayda tafsilot uni o'yantirib qo'yadi va aynan shu iz orqali tergov boshlanadi. Surishtiruvlar natijasida ushbu tashrif qog'ozini jinoyat yechimiga olib kelgan asosiy kalit bo'lib chiqadi. Ma'lum bo'lishicha, Chimkentdan poytaxtga ish bilan kelgan park direktori uni tanishiga bergan, tanishi esa ushbu qotillik jinoyati sodir etgan.

«OTAM BILAN FAXRLANAMAN»

— Men uchun otam, avvalambor — qahramon, — deydi uning qizi Durdon. — Bolaligimdanoq ularning kiyinishidagi intizom, ko'zlaridagi jiddiylik va ishiga bo'lgan mas'uliyat menda faxr tuyg'usini uyg'otardi. Otamning

kasbi oson emas edi. U ko'pincha bayram kunlarida ham navbatchilikda bo'lar, biz esa uni intiqlik bilan kutardik.

Bir safar otam besh-olti kun deganda uyga qaytdi. Biz uni juda sog'ingandik. U qattiq charchagani uchun deyarli gapirmadi. Men kiyimini yechishga yordam berayotganimda, charchoqdan qo'llari titrayotganini ko'rib qoldim. Bu holatdan yuragim ezilib ketdi...

Ertasi kuni onamdan bildimki, otam o'ta og'ir tezkor tadbirda qatnashgan ekan. Otam jamoasi bilan tunni bedor o'tkazib, vazifani muvaffaqiyatli bajargan. O'shanda birinchi marta angladimki, otamning kasbi shunchaki xizmat emas, balki inson taqdiri bilan bog'liq yuksak mas'uliyat ekan. Shu bois o'z kasbiga sadoqat bilan xizmat qilgan insonning farzandi sifatida otam bilan doimo faxrlanaman.

Adolat FAYZIYEVA,
o'z muxbirimiz.

Mulohaza

TELEFONGA TERMILGAN AVLOD

Bugungi axborot texnologiyalari shiddat bilan rivojlangan davrda voyaga yetmaganlar va yoshlar uchun internet shunchaki vaqt o'tkazish vositasi emas, balki kundalik hayotning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Biroq meni bir savol jiddiy o'yantiradi: bu cheksiz virtual olam yoshlarimiz uchun ilm-ma'rifat manbayimi yoki katta xavf-xatarlarni yashirgan raqamli tuzoqmi?

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, bugungi avlod virtual makonda juda erta «mustaqil hayot» boshlamoqda. Ko'pchilik ota-onalar farzandining uyda, o'z xonasida telefon titkilab o'tirganini ko'rib, uni «ko'z oldimda, xavfdan xoli» deb o'ylashadi. Vaholanki, nazoratsiz qoldirilgan smartfon bolaga butun dunyoning illatlari, yot g'oyalari va jinoiy tarmoqlariga ochilgan eshikka aylanishi mumkin. Shu bois, global tarmoqning ijobiy va salbiy jihatlari huquqiy hamda ijtimoiy nuqtayi nazardan baholash bugungi kunning dolzarb vazifasiga aylanmoqda.



KATTA IMKONIYATLAR

To'g'ri, internet insoniyat hayotini har qachongidan ham yaqin, ochiq va qulay qildi. Ilgari bitta kitob yoki ilmiy manbani topish uchun oylab kutubxona eshiklarida sarg'aygan bo'lsak, bugungi yoshlar birgina tugmani bosish orqali jahonning eng yetakchi universitetlari ma'ruzalari tinglash imkoniyatiga ega. «Coursera», «Udemy» yoki «Khan Academy» kabi yirik platformalar hatto chekka hududlardagi iqtidorli yigit-qizlarimiz uchun ham jahon andozalaridagi ta'lim eshiklarini ochib berdi.

Shu bilan birga, virtual makon yoshlarga o'z intellektual salohiyatini namoyon etish va qonuniy daromad topish uchun ulkan imkoniyat bermokda. Bugun IT sohasini tanlagan, grafik dizayn, dasturlash yoki raqamli marketing sirlarini puxta egallagan yoshlar nafaqat o'z kelajagini qurmoqda, balki yurtimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga ham salmoqli hissa qo'shmoqda.

Onlayn muloqot, xalqaro hamkorlik va xorijiy tillarni masofadan o'rganish imkoniyatlari ularning dunyoqarashini kengaytirdi. Demak, internet — ulkan kuch, lekin bu kuchdan qonuniy, ongli va ezgu maqsadlarda foydalanish bosh mezon bo'lishi shart.

QARAMLIK TUZOG'I

Bugungi kunda eng katta ijtimoiy xavflardan biri — yoshlarning internetga ipsiz bog'lanib qolishi, ya'ni virtual qaramlikdir. Soatlar ekran qarshisida vaqt o'tkazadigan, hayotini faqat ijtimoiy tarmoqlardagi soxta maqtoqlar va tavakkalchilikka asoslangan onlayn o'yinlar bilan o'lchaydigan yoshlarning ruhiyati sekin-asta izdan chiqishi mumkin. Nazoratning yetishmasligi esa ularni turli jinoiy guruhlarining o'lgasiga, qurboniga aylantirib qo'yimoqda.

Yana eng og'irliq masalalardan biri — yoshlar o'rtasida axborot xavfsizligi

va raqamli gigiyena madaniyatining yetishmasligi. Biz farzandlarimizga ko'chada qanday yurishni, begona odamlardan ehtiyot bo'lishni o'rgatamiz-u, ammo nega onlayn dunyodagi kiberhujumlar, fishing (soxta saytlar orqali malumotlarni o'g'rilash) va raqamli firibgarliklardan himoyalaniшни tizimli ravishda tushuntirmaymiz? Bugun plastik kartalardan pul o'g'rilash, internet orqali aldov yo'li bilan mablag' yechib olish kabi jinoyatlarga aynan yoshlarning aralashib qolayotgani yoki ularning bundan jabr ko'rayotgani achchiq haqiqatdir. Telefonga mustahkam parol qo'yish, ikki bosqichli himoyani yoqish — xuddi uydan chiqayotganda eshikni qulflashdek oddiy hayotiy ko'nikmaga aylanishi shart.

Eng xavotirlisi, virtual dunyoda minglab «do'st» orttirgan ayrim yoshlarning real hayotda ota-onasi yoki yaqinlari bilan bir og'iz samimiy so'zlashishga xo-

hishi yo'q. Insoniy mehr, jonli suhbat va oilaviy qadriyatlar o'rnini sovuq emoji'lar egallamoqda. Bu esa jamiyatda ijtimoiy loqaydlik xavfining kuchayishiga olib kelishi mumkin.

PROFILAKTIKA VA TO'G'RI YO'NALISH

Xo'sh, bunday vaziyatda jamiyat, ota-ona va mutasaddi tashkilotlar nima qilishi kerak? Yoshlarni internetdan butunlay uzib qo'yish yoki texnologiyalarni taqiqlash yechimmi? Yo'q, bu mutlaqo imkonsiz va noto'g'ri yo'ldir. Shiddat bilan oqib kelayotgan selni to'xtatib bo'lmaganidek, axborot oqimini ham cheklab bo'lmaydi. Uni faqat to'g'ri o'zanga yo'naltirish lozim.

Biz — huquq-tartibot xodimlari, mahalla faollari va ota-onalar ham keng jamoatchilik bir yoqadan bosh chiqarib, yoshlarga internetdan oqilona va qonuniy foydalanish madaniyatini shakllantirishimiz zarur. Ularni virtual makondagi xavf-xatardan ogoh etish, kiberjinoyatlar uchun javobgarlik muqarrar ekanligini tushuntirish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, yoshlarni sog'lom turmush tarziga, sportga, kitobxonlikka jalb qilishi lozim.

Zero, kelajakni asraydigan eng katta kuch — bu to'g'ri tarbiya, sog'lom muhit va shaxsiy namunadir. Agar biz farzandlarimizni internetdan to'g'ri foydalanishga o'rgata olsak, virtual olam ular uchun xavf emas, balki taraqqiyot va ma'rifat manbayiga aylanadi.

Jahongir TO'XTASINOV,
o'z muxbirimiz.

Namangan viloyati.

XOVOS TOMONLARDA

TARIXDAN TARIQCHA

«Boburnoma»da Xovos temuriylar o'rtasida taxt va hududlar uchun kurash ketayotgan davrdagi muhim strategik nuqta – qal'a sifatida tilga olinadi. Unda yozilishicha, eng mashhur voqealardan biri – 1501-yilda sodir bo'lgan. Bobur Samarqandni egallab turganda, Sulton Mahmudxon (Boburning



tog'asi) unga yordam uchun qo'shin jo'natadi. Biroq Shayboniyxon katta kuch bilan kelib, Xovos qal'asi yaqinida Sulton Mahmudxon va Ahmadxon (kichik xon) qo'shinlarini mag'lubiyatga uchratadi. Bu tarixiy to'qnashuv «Boburnoma»da mintaq taqdirini o'zgar-

tirgan muhim voqea sifatida bayon etilgan.

Bobur Xovos, Zomin va Jizzax atrofidagi hududlarni tavsiflarkan, ularning iqlimi va tabiiy sharoitiga ham to'xtalib o'tadi. U Xovosda nafaqat chorvachilik, balki dehqonchilik va bog'dorchilik ham juda rivojlanganini qayd etadi. Muallif bu yerning suvi shirin, tabiati go'zal, ayniqsa, «arzon, chuchuk (shirin) qovunlar va yaxshi uzumlar farovon» ekanligini alohida ta'kidlab o'tgan. Bu esa o'sha davrda Xovos va uning atrofidagi vohalarda dehqonchilik madaniyati yuqori bo'lganidan dalolat beradi.

O'TMISHINI BILGAN ADASHMAYDI

Sirdaryoda Xovoschalik tarixi boy hudud yo'q. Shuni hisobga olgan tuman IIB mas'ul xodimlari probatsiya nazoratidagi shaxslar dunyoqarashini yanada kengaytirishga qaratilgan profilaktik tadbir



uyushtirishdi. Yigirmadan ortiq ana shunday shaxslar uchun eski shahar arxeologik yodgorligiga sayohat tashkil etildi.

Bir paytlar qariyb yigirma ming kishi istiqomat qilgan ushbu shaharda pul zarb qilingan, qurol-yarog' ishlab chiqarilgan, kulolchilik rivojlangan. Arxeologik yodgorlikdan topilgan osori atiqalar saqlanayotgan muzeydagi tarixiy eksponatlar, qadimiy madaniy meros namunalari ularda katta taassurot qoldirdi. Tadbir davomida adashib jinoyat ko'chasiga kirgan shaxslar sog'lom turmush tarziga chaqirildi. Millatimizga xos halollik, to'g'rilik, milliy ma'naviy qadriyatlarimizga sodiqlik targ'ib qilindi. Mutaxassislar tomonidan muzey eksponatlari va ularning tarixiy ahamiyati haqida batafsil ma'lumot berildi.



JURNALISTLAR BILAN MULOQOT

Keyingi paytda tuman IIB mas'ullari tomonidan viloyat, tuman OAV vakillari bilan muloqot ko'lamini kengaytirildi. Xususan, yaqinda bo'lib o'tgan ana shunday muloqotda hududda yuz bergan bir necha korrupsion jinoyatlarga e'tibor qaratildi. Tumanda sodir etilgan yer sotish, mansab vakolatini suiiste'mol qilish kabi bir necha jinoyatlar kriminogen vaziyatga salbiy ta'sir ko'rsatgani bois bunday jinoyatlarning kelib chiqish sabablari chuqur tahlil qilindi. OAV vakillariga korrupsion jinoyatlarga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilayotgan profilaktik tadbirlar yuzasidan batafsil ma'lumot yetkazildi. Jurnalist va blogerlarning bu boradagi savollariga ochiq, oshkora javob berildi.



– Keyingi paytda tuman-shahar IIB faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash bo'yicha ibratli ishlar amalga oshirilmoqda, – deydi O'zAning Sirdaryo viloyati bo'yicha muxbiri G'ulom Primov. – Jumladan, Xovos tumani IIB tomonidan keng jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari xodimlari bilan muloqotning kengayayotgani buning yaqqol isbotidir.

Muloqot yakunida jurnalistlardan jamoatchilikni korrupsion jinoyatlarga qarshi kurashishda o'zaro hamkorlikka chaqirishga qaratilgan kontentlarni ko'paytirish so'raldi.

«DUGONALAR, BORMISIZ, OMONMISIZ?»

Xovos hozir ham mamlakatning muhim chorrahasi hisoblanadi. Shuning uchun hududning logistik imkoniyatlaridan yanada keng foydalanishga harakat qilinadi. Jumladan, tumanni kesib o'tgan temiryo'l, avtomagistralga yaqin joylarda trikotaj-tikuvchilik fabrikalari faoliyat ko'rsatmoqda. Ularda bir necha yuzlab xotin-qizlar faoliyat ko'rsatadi. Tuman IIB HPB XQMB katta inspektori Mahliyo Hamrayeva ushbu korxonalarda tez-tez bo'lib turadi. U xotin-qizlar bilan ochiq muloqot o'tkazishga, ularning qalbiga quloq tutishga harakat qiladi.



– Mahliyo opa bizning yaqin sirdoshimizga aylanib qolgan, desak, adashmaymiz, – deydi «Xovos texstil» korxonasida faoliyat ko'rsatuvchi Hamida Nabiyeva. – U har gal kelganida muammolarimiz bilan qiziqadi, qo'lidan kelganicha ko'mak beradi.

Mahliyo Hamrayeva xotin-qizlar bilan muloqotda ularning huquqiy savodxonligini, jumladan, firibgarlik, giyohvandlik, korrupsiya, kiberjinoyatchilikka oid bilimlarini yuksaltirishga harakat qiladi.

Muxtasar aytganda, tuman IIBga tashrif buyurgan inson xodimlarni qizg'in ish ustida uchratishi tayin. Ular hech bir egri niyatli shaxs halol, mehnatkash, tanti xovosliklarning tinch, osuda hayotiga qutqu solishiga yo'l qo'ymaslik uchun kun-u tun hushyor.

Abdurahmon MUSTAFOQULOV,
o'z muxbirimiz.

Sirdaryo viloyati.

BARCHA DAVRLARNING BUYUK MATEMATIGI



Afsuski, al-Xorazmiy hayoti haqida batafsil ma'lumotlar kam. Iqtidorli olim taxminan 783-yili Xivada tug'ilgan. Boshlang'ich ta'limni o'z davrining taniqli olimlaridan olgan. O'z vatanida u hind va yunon olimlarining asarlari bilan tanishdi. Olim o'zining yetuk yillarini Bag'dodda mahalliy xalifa va fan homiysi al-Ma'mun boshchiligidagi o'tkazdi. Ma'mun bu yerda fan tarixida «Bag'dod akademiyasi» yoki «Ma'mun akademiyasi» deb ataladigan «Bayt al-hikma»ga asos solgan. Muhammad al-Xorazmiy umrining oxirigacha ushbu ilmiy markazning rahbari bo'lgan. Bu yerda arab dunyosi va Markaziy Osiyoning turli mintaqalaridan kelgan ko'plab olimlar ishlashgan, ularning ixtiyorida eng boy qadimiy qo'lyozmalar kutubxonasi, shuningdek, maxsus qurilgan rasadxona bo'lgan.

Al-Xorazmiyning algebra bo'yicha «Kitob al-jabr val-muqabala» asari O'rta asrda G'arb mamlakatlarida shunchalik mashhur bo'lganki, bir necha asrlar davomida Yevropa universitetlari talabalari uchun mumtoz matematik manba bo'lib xizmat qilgan. Matematika fani va uni ommalashtirishga qo'shgan ulkan hissasi uchun jahon ilmiy hamjamiyati al-Xorazmiy haqli ravishda «Algebra otasi» deb atagan. XX asrning taniqli amerikalik ilm-fan tarixchi olimi Jorj Sarton eng

iqtidorli matematik haqida shunday degan: **«Al-Xorazmiy o'z davrining buyuk olimi va hamma sharoitlarni hisobga olgan holda, barcha davrlarning eng buyuk matematiklaridan hisoblanadi».**

Al-Xorazmiy asarlari arab tilidan lotin tiliga, so'ngra yangi

Yevropa tillariga tarjima qilingan. Ular asosida turli matematika darsliklari yaratildi. Al-Xorazmiy asarlari Uy-g'onish davri ilm-fanining shakllanishida ham muhim rol o'ynadi hamda Sharq va G'arb mamlakatlarida O'rta asr ilmiy tafakkurining rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatdi.

Al-Xorazmiy matematikada sinus funksiyalarini o'z ichiga olgan batafsil trigonometrik jadvallarni ishlab chiqdi. Astronomiyada Quyosh, Oy va sayyoralar harakatlari, Quyosh tutilishi hodisalarini batafsil hisoblab chiqdi. Uning astronomik jadvallari Yevropa, keyinchalik Xitoy tillariga tarjima qilingan.

Al-Xorazmiy geografiya sohasida «Yer surati kitobi»ni yozib, Ptolemeyning ba'zi qarashlariga oydinlik kiritdi. Ptolemeyning geog-

Yevropalik olimlar bir necha asrlar davomida barcha hisob-kitoblarning tagiga «diksit Algoritmi», ya'ni «Al-Xorazmiy shunday deydi» deb qo'shib ketishni o'zlariga sharaf deb bilishgan.

«Algebra» so'zi allomaning «Kitob al-jabr val-muqabala» kitobi nomidan olingan. Borlig'imizni qamrab turuvchi har qanday texnologiyalar uchun asos sifatida xizmat qiladigan fan nomidagi «Algoritim» atamasi esa aynan olimning Al-Xorazmiy ismidan olingan.

Tarixni Vatanini va madaniyatini chinakam sevadigan insonlar yaratadi. Asrlar davomida yurtimizdan tariximizni yaratgan va butun dunyoga tanitgan buyuk davlat arboblari, sarkardalar, olimlar, mutafakkirlar va yozuvchi-shoirlar yetishib chiqqan.

Biz ilm-fan va madaniyat rivojiga beqiyos hissa qo'shgan Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Al-Forobiy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk ajdodlarimiz bilan haqli ravishda faxrlansak arziydi. Shunday ulug' zotlardan biri IX asrning eng yirik olimi, astronomi, matematigi, geografi Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyning nomini faxr bilan tilga olamiz.

rafiya, astronomiya va astrologiya bo'yicha tadqiqotlarini tuzatdi.

Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy Markaziy Osiyo vakillari tomonidan tuzilgan jahon tarixiga oid birinchi kitob muallifi edi. Uning «Tarix kitobi» («Kitob at-tarix») bugungi kungacha faqat parchalarda saqlanib qolgan bo'lsa-da, undagi voqealar ketma-ket yillar davomida bayon etilgan. Masalan, u Aleksandr Makedonskiyning tug'ilgan

vaqti haqida, Islom olami payg'ambari Muhammad alayhissalomning tug'ilgan sanalari, payg'ambarlik faoliyatining boshlanishi va vafoti haqida bebaho ma'lumotlarni yozib qoldirgan.

Xorazmlik olim 20 ga yaqin ilmiy asar muallifi bo'lib, ulardan 7 tasi bugungi kungacha yetib kelgan. Muhammad al-Xorazmiyning bu asarlari, ayniqsa, astronomiya va matematika fani va madaniyati rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi. Xorazmiy beshdan ortiq fanni fundamental yangi g'oyalar bilan boyitdi. Shuning uchun u ilm-fan tarixida birinchi ensiklopedist olim hisoblanadi. Al-Xorazmiy boshlagan an'anani Ibn Sino, Beruniy, Leonardo da Vinchi, Lomonosov va boshqalar davom ettirishdi. Uning «Hind hisobi kitobi»da muallif fanda birinchi marta to'qqizta raqam va nol «0» belgisi bilan o'nlik pozitsiyali hisoblash tizimini asoslab berdi va joriy qildi. Uning yordami bilan dunyo mamlakatlari o'nlik son va raqamlar nima ekanligini bilib olishdi.

Bir kuni buyuk olim, tahliliy geometriya asoschisi al-Xorazmiydan ayol haqida so'rashganda u matematik hisoblash tizimiga solib quyidagicha javob beradi:

«Ayol imonga ega bo'lsa, bu = 1. Agar ayol go'zallikka ham ega bo'lsa 0 qo'shing, natijada 10 bo'ladi.

Agar ayolning boyligi ham bo'lsa, yana 0 qo'shing va 100 bo'ladi.

Agar ayol zodagonlardan bo'lsa, yana bitta 0 qo'shing va 1000 bo'ladi.

Agar «1» raqami yo'qolsa (imon), natijada faqat nollardan boshqa hech narsa qolmaydi».

Ma'lumki, lotin (rim) raqamlari asosiy yettita belgilardan iborat sanoq tizimidir. Bular: **I (1), V (5), X (10), L (50), C (100), D (500) va M (1000)**. Sonlar ushbu belgilarni qo'shish va ayirish yo'li bilan shakllantirilgan, bunda kattadan oldingi kichik raqam chegirishni (masalan, IV = 4), kattadan keyingi kichik raqam esa qo'shishni (masalan, VI = 6) anglatadi.

23 soni XXIII (10+10+1+1+1)

80 soni LXXX (50+10+10+10)

100 soni C

300 soni CCC (100+100+100)

800 soni DCCC (500+100+100+100)

shaklida juda murakkab ko'rinishda yozilgan.

Rim sanash tizimida sonlarni yozishda kichik raqam katta raqamning o'ng tomonida turishi mumkin; bunda u unga qo'shiladi. Masalan: **283 raqami rim yozuvida CCLXXXIII, ya'ni 100 + 100 + 50 + 10 + 10 + 1 + 1 + 1 = 283 deb yoziladi.** Bu yerda yuzni ifodalovchi raqam ikki marta takrorlangan bo'lsa, o'nlik va bir raqamlari tegishli uch martadan takrorlangan.

Misol: 1988-yil soni alohida hisoblaganda bir ming M, to'qqiz yuz CM, sakson LXXX, sakkiz VIII shaklida yoziladi. Ular birga yozilsa MCMLXXXVIII ko'rinishda bo'ladi. Bunday katta sonlarni hisoblash juda murakkab bo'lgan va ma'lum darajada noqulayliklar tug'dirgan.

Al-Xorazmiy birdan to'qqizgacha bo'lgan raqamlarga «0» sonini kashf qilishi bilan eng sodda hisoblash tizimini ixtiro qildi. Bu uning jahon sivilizatsiyasi tarixidagi olamshumul kashfiyotlaridan biri bo'lib qoldi.

G. SHUKUROV



TAYYORGARLIK MAROMIDA



22–29-iyul kunlari Pokistonda voleybol bo'yicha erkaklar o'rtasida Markaziy Osiyo chempionati bo'lib o'tadi.

Ushbu nufuzli musobaqaga puxta tayyorgarlik ko'rish maqsadida O'zbekiston erkaklar milliy terma jamoasi ayni kunlarda «Jar» sport-sog'lomlashtirish kompleksida o'quv-mashg'ulot yig'inini o'tkazmoqda.

O'zbekiston sohil voleyboli terma jamoasi ayni kunlarda Olimpiya shaharchasida navbatdagi o'quv-yig'in mashg'ulotlarini olib bormoqda.

Ta'kidlash joizki, terma jamoa mashg'ulotlari tajribali mutaxassislar — Ramdu Shaylin hamda Charid Madushanka rahbarligida olib borilmoqda. Murabbiylar sportchilarning texnik, taktik va jismoniy tayyorgarligini yanada oshirishga qaratilgan mashg'ulotlarni tashkil etmoqda.



FINALDA IKKI QIT'A VAKILLARI

AQSH, Meksika va Kanada mezbonlik qilayotgan futbol bo'yicha 2026-yilgi Jahon chempionati yakuniy pallaga kirdi.

Kuchli to'rtlikkacha yetib borgan Ispaniya, Fransiya, Argentina va Angliya terma jamoalari yarim final bahslarini o'tkazishdi.

Fransiya bilan bellashgan ispanlar 2-0 hisobida ishonchli g'alabaga eri-

shib, birinchi finalchi nomiga aniqlik kiritib bergan bo'lsa, Angliya argentinaliklar bilan bahsda hisobda oldinda borayotib, yakunda baribir mag'lubiyat alaminii totib ko'rishdi – 1-2.

3-o'rin uchun bahsda (18-iyul) Fransiya–Angliya bellashsa, 19-iyul kuni Ispaniya va Argentina Jahon chempionligi uchun tom ma'noda jang qiladi.



XODIMLARNING CHEMAION FARZANDLARI



Tojikistonning Xo'jand shahrida WASKF Butun uslubli karate bo'yicha Janon kubogi bellashuvlari bo'lib o'tdi. Dunyoning turli mamlakatlaridan kuchli sportchilar jam bo'lgan nufuzli musobaqada O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi «Jar» sport-sog'lomlashtirish kompleksi (SSK) yosh sportchilari ham munosib ishtirok etib, yuksak natijalarni qo'lga kiritishdi.

E'tiborli jihati shundaki, g'alaba qozongan yosh sportchilarning barchasi ichki ishlar xodimlarining farzandlaridir. Ular nafaqat sportdagi mahorati, balki intizomi, matonati bilan ham ajralib turishdi.

Musobaqa yakunlariga ko'ra, Mustafu Mirkomilov, Muhammadfayoz Abdujalilov, Marufjon Ubaydulayev, Saidmuhammadali Husanov, Nurmuhammad Komiljonov, Muhammad Habibullayev, Javohirjon Ismatov hamda Mirazizjon Mirsoatov o'z vazn va yosh toifalarida oltin medalni qo'lga kiritib, shohsupaning eng yuqori pog'onasidan joy oldilar. Ulug'bek Rahimov kumush medal sovrindori bo'ldi, Jahongir Jumanazarov esa bronza medalni qo'lga kiritdi. Natijada jamoa hisobiga 8 ta oltin, 1 tadan kumush va bronza medali yozildi. Mazkur natija yosh sportchilarimizning puxta tayyorgarligi, murabbiylar mehnati va ota-onalarning doimiy qo'llab-quvvatlashi



samarasi ekanini yana bir bor tasdiqladi.

– Ichki ishlar organlari xodimlarining farzandlari xalqaro maydonlarda erishayotgan yutuqlar yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalashga qaratilgan sa'y-harakatlarining amaliy samarasidir. Ularning har bir g'alabasi nafaqat sportdagi muvaffaqiyat, balki Vatanga sadoqat, intizom va yuksak maqsadlar sari intilishning yorqin namunasidir, – deydi IIV «Jar» SSK rahbari o'rinbosari, podpolkovnik Shuhrat Anvarov.

Yosh karatechilarning ushbu muvaffaqiyati ortida murabbiy Mahmud

Suyarovning ko'p yillik tajribasi, fidokorona mehnati, sportchilarga nisbatan talabchanligi va yuksak mas'uliyati mujassam. Ushbu tomonidan olib borilayotgan tizimli mashg'ulotlar yoshlarning xalqaro maydonlarda yurtimiz sharafiga munosib himoya qilishiga zamin yaratmoqda.

Jahon kubogidagi ushbu yutuq yosh avlodni sportga keng jalb etish, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda ular orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish borasida olib borilayotgan ishlarning amaliy natijasidir.

Madina QAHHOROVA,
katta leytenant.



BOKSCHILARIMIZ QIT'ADA TENGSIZ!

Indoneziyaning Jakarta shahrida boks bo'yicha U19, U23 yosh toifalaridagi Osiyo chempionatining hal qiluvchi janglari bo'lib o'tdi.

Dastlab ringga chiqqan qizlarimiz bahslarda munosib ishtirok etib, 10 ta oltin, 3 ta kumush va 2 ta bronza medali bilan umumjamoa hisobida birinchi bo'lishdi.

U19 yoshli qizlarimiz 4 ta oltin va 2 ta kumush medalni qo'lga kiritishdi. Ikkinchi va uchinchi o'rinlar mos ravishda Qozog'iston (3-3-0) va Hindiston (2-0-6) qizlariga nasib etdi.

U23 yosh toifasida ham eng yuqori o'rinni qizlarimiz band etishdi – 6-1-

2. Keyingi o'rinlarni yana Qozog'iston (3-3-2) va Hindiston (1-4-4) vakillari egallashdi. Yigitlar final bahslariga eng ko'p – 14 nafar bokschi bilan yetib kelishdi. U19 yosh toifasidagi yigitlar o'rtasida o't-



gan janglar yakuniga ko'ra terma jamoamiz 7 ta oltin, 1 ta kumush va 1 ta bronza medali bilan umumjamoa hisobida birinchi o'rinni egalladi. Ikkinchi, uchinchi o'rinlardan Qozog'iston va Janubiy Koreya terma jamoalari joy olishdi.

U23 yoshlilar bellashuvida ham yigitlar birinchi o'rinni o'zlariniki qilishdi. 4 ta oltin, 2 ta kumush va 3 ta bronza.

O'zbekiston terma jamoasi har doimgidek, qit'ada tengsiz ekanligini namoyish etdi.

Salomatlik

CHANQASHNI KUTMANG!

Issiq kunlarda salomatlikni asrang

Yoz fasli nafaqat dam olish, balki organizm uchun jiddiy fiziologik sinov davridir. Mamlakatimizda havo harorati ayrim kunlari 40–45 daraja, baʼzan esa undan ham yuqori koʻtariladi. Bunday sharoitda ochiq havoda xizmat qilayotgan ichki ishlar organlari xodimlari, yoʻl-patrul xizmati inspektorlari, qoʻriqlash boʻlinmalari xodimlari, profilaktika inspektorlari va boshqa xizmat vakillari issiq taʼsiriga eng koʻp duch keladi.

Koʻpchilik «biroz charchadim», «chanqadim», «boshim aylanyapti», deb bu holatlarga yetarlicha ahamiyat bermaydi. Vaholanki, mazkur alomatlar organizmda jiddiy oʻzgarishlar boshlanganining dastlabki belgilaridir.

ORGANIZM SUVSIZLANA BOSHLASA...

Inson tanasining taxminan 60–70 foizi suvdan iborat. Suv hujayralarda kechadigan barcha biokimyoviy jarayonlar, moddalar almashinuvi, qon aylanishi va tana haroratini boshqarishda muhim ahamiyatga ega. Issiq havoda organizm tana haroratini meʼyorda ushlab turish uchun koʻproq terlaydi. Ogʻir mehnat yoki xizmat vaqtida inson bir soat ichida 1–2 litrgacha suyuqlik yoʻqotishi mumkin. Agar bu yoʻqotish oʻz vaqtida qoplanmasa, organizm suvsizlana boshlaydi.

Suv bilan birga natriy, kaliy, magniy va kalsiy kabi hayotiy muhim minerallar ham yoʻqotiladi. Bu esa nafaqat chanqashni, balki yurak-qon tomir tizimi, asab tizimi va mushaklar faoliyatidagi buzilishlarni ham keltirib chiqaradi.

QON NIMA UCHUN QUYUQLASHADI?

Qon ikki asosiy qismdan tashkil topgan: suyuq qismi — plazma va qon hujayralari. Suv yetishmasligi natijasida plazma hajmi kamayadi, qon hujayralarining nisbiy ulushi ortadi, qonning qovushqoqligi (quyuqligi) oshib ketadi. Natijada quyuqlashgan qon tomirlar boʻylab sekin harakatlanadi, yurakka tushadigan yuklamani oshiradi, mayda qon tomirlarda qon aylanishini qiyinlashtiradi, tromb hosil boʻlish xavfini koʻpaytiradi. Shu sababli yoz faslida yurak infarkti va ishemik insult kabi holatlar koʻproq kuzatilishi mumkin.

QANDAY KASALLIKLAR RIVOJLANISHI MUMKIN?

Suvsizlanish va qon quyuqlashishi oʻtkir miokard infarkti, ishemik insult, chuqur venalar trombozi, oʻpka arteriyasi tromboemboliyasi, gipertonik kriz, yurak ritmining buzilishi, buyrak faoliyatining oʻtkir buzilishi, issiq urishi kabi ogʻir kasalliklarga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, 40 yoshdan oshgan, ortiqcha vaznli, qandli diabet, gipertoniya yoki yurak-qon tomir kasalliklari mavjud xodimlar xavf guruhiga kiradi.

ILK BELGILARNI EʼTIBORSIZ QOLDIRMANG

Organizm xavf haqida oldindan ogohlantiradi. Kuchli chanqash, ogʻiz qurishi, bosh ogʻrigʻi, bosh aylanishi, koʻz oldi qorongʻilashishi, tez charchash, diqqatning susayishi, yurakning tez urishi, peshobning toʻq sariq rangda boʻlishi, mushaklarda tirishish kabi belgilar kuzatilsa, darhol chora koʻrish lozim. Bu belgilarning har biri organizmda suyuqlik tanqisligi yuzaga kelganidan dalolat berishi mumkin.

XULOSA

Vatan tinchligi va jamoat xavfsizligini taʼminlashdek masʼuliyatli vazifani bajarayotgan har bir ichki ishlar organi xodimi oʻz salomatligiga ham masʼuliyat bilan yondashishi zarur. Unutmang, chanqash — organizmning kechikkan signali. Suvni chanqash paydo boʻlishini kutmasdan ichish, sogʻlom turmush tarziga amal qilish va issiq kunlarda ehtiyotkorlik choralarini koʻrish orqali yurak-qon tomir kasalliklari, infarkt, insult hamda boshqa ogʻir asoratlarning oldini olish mumkin.

Nigora MUXAMEDALIYEVA,
IIV Tibbiyot boshqarmasi boshligʻi oʻrinbosari,
tibbiyot fanlari doktori.

PROFILAKTIKA — ENG YAXSHI HIMOYA

SUVSIZLANISHNING OLDINI OLISH

- VOZ KECHING** gazli shirin ichimliklar va energetiklar
- ISTEʼMOL QILMANG** spirtli ichimliklar
- KUNIGA OʻRTACHA** 2,5–3,5 litr suyuqlik isteʼmol qiling
- MUNTAZAM SUV ICHING** chanqashni kutmang
- HAR 20–30 DAQIQADA** 150–200 ml
- MEʼYORDAN ORTIQ ICHMANG** qahva
- KOʻPROQ ISTEʼMOL QILING** tarvuz, qovun, bodring

ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARI UCHUN AMALIY TAVSIYALAR

BOSQICH	TAVSIYALAR	MAQSAD
XIZMATGA CHIQISHDAN AVVAL	- kamida 500 ml suv iching; - bosh kiyimini kiying; - yengil, havo oʻtkazuvchi kiyim tanlang.	Tananing suv balansini taʼminlash, issiqlikdan himoya qilish va xizmatga tayyorgarlikni oshirish.
XIZMAT DAVOMIDA	- suvni oz-ozdan, ammo muntazam iching; - imkoniyat boʻlsa, har soatda bir necha daqiqa soyada dam oling; - hamkasblaringizning ahvolini kuzatib boring.	Suvsizlanish va issiqlik zarbasining oldini olish, salomatlik va ish samaradorligini saqlash.
XIZMATDAN KEYIN	- yoʻqotilgan suyuqlikni toʻldirish; - mineral suv yoki ayron kabi ichimliklar isteʼmol qiling; - yengil va vitaminlarga boy ovqatlaning.	Organizmni tiklash, minerallar va vitamin zaxiralarini toʻldirish, salomatlikni mustahkamlash.

HAYOT UCHUN MUHIM 7 QOIDA

No	QOIDALAR
1	Chanqashni kutmang — muntazam suv iching.
2	Kuniga 2,5–3,5 litr suyuqlik qabul qiling.
3	Issiqda bosh kiyimsiz uzoq vaqt qolmang.
4	Gazli shirin va energetik ichimliklardan saqlaning.
5	Bosh aylanishi, holsizlik yoki chanqashga befarq boʻlmang.
6	Hamkasbingiz ahvoli yomonlashsa, darhol birinchi yordam koʻrsating.
7	Sogʻlom xodim — samarali xizmat va xavfsiz jamiyat garovidir.

**(Davomi. Boshlanishi
o'tgan sonda.)**

«Dum» qo'li bilan Nizomga imo qildi:

– Nizom sening sekundanting bo'ladi. Men Abjalga sekundantlik qilaman.

O'sha oqshom yarim kechagacha xayolan Dilafrō'z bilan gaplashib yotdim. Qani endi bir marta ko'rsam, oxirgi marta ko'rib qolsam... Yo'q, u olisda edi. Oq, oppoq bulutlar ustida edi. Aksiga olib, o'sha kuni aqalli tushimga ham kirmadi.

Ertalab karaxt bo'lib uyg'ondim. Boshim lo'qillab og'rir, negadir xuddi yig'lagan odamdek ko'zim achishardi.

Ko'chaga chiqsam, darvoza oldida Nizom turibdi.

– Borma! – dedi qo'l siltab. – Bilasan-ku, Abjal bandit! Tegirmonga tushsa butun chiqadi. Nima, joningdan to'ydingmi?

Ko'nglimning bir chekkasida Nizom to'g'ri aytayotganini bilib turardim. Ammo o'zim ham tushunib yetmagan qandaydir qaysar tuyg'u nuqul olg'a itarardi. Qaytaga yaxshi emasmi? Sen o'lib ketasan, Dilafrō'z hammasini eshitib, zor-zor yig'laydi... Seni sevmaganiga, qadringga yetmaganiga pushaymon bo'ladi. Abjaldan bir umr nafratlanib yuradi.

– Menga qara, Nizom, – dedim sovuqqonlik bilan. – Qo'rqayotgan bo'lsang bormay qo'ya qol, menga sekundantning keragi yo'q.

Nizom bora-borguncha meni ham, Abjalni ham, «hamma g'alvani boshlagan» o'sha «Dum»ni ham so'kib bordi. Menga bu gaplar ta'sir qilmas, xayolim boshqa yoqda edi. Dilafrō'z qayoqdaykin hozir? Nima qilayotganiyin?

Ko'prik ustiga yetib kelganimizda hech kim yo'q edi. Kun ertalabdan qizib ketgan. Yaltirab yotgan temiryo'l izidanmi, qoramoyga belangan shpalardanmi, chuchmal hid anqib, nafasni olgudek bo'lardi. Ko'prik chetiga o'rnatilgan liqildoq panjaraga suyanib pastga qaradim. Yuqorida yoyilib oqayotgan suv shu yerga – temiryo'l ostiga kelganida keskin torayar, ikki cheti betonlab qo'yilgan o'zandan shiddat bilan oqib o'tib, narigi tomondan otilib chiqib ketar edi. Shuning uchun bo'lsa kerak, yuqoridan sarg'ayib kelayotgan suv narigi tomondan ko'piklanib, oppoq oqarib chiqardi. Jarining u yuzida sap-sariq qamishzor ko'zga tashlanar, yanayam nariroqda botqoqlik qorayib ko'rinardi.

Terak bo'yi pastlikda ajdardek vishillayotgan Bo'rijarga qarashim bilan yuragim orqaga tortib ketdi.

– Qalay, yuraging po'killab qolmadimi?

Do'rillagan ovoz egasini tanib, burilib qaradim. Abjal bir qo'lida «portveyn» shishasi, bir qo'lini beliga tiragancha kinoyali iljayib turardi. Nariroqda esa Nizom bilan «Dum» yuzma-yuz turishar, Nizom

– Menga baribir.

– Sen-chi?

– Mengayam!

– Bo'lmasa bunday...

Uzoqdan eshitilgan gudok tovushi «Dum»ning gapini bo'ldi.

– Shoshma, poyezd o'tib ketsin! – dedi u bilag'onlik bilan. – Hammasi qoidasi bilan bo'lishi kerak... Erkakchasiga...

Shiddat bilan kelayotgan teplovoz yaqinlashib qolgan-

bog'ichini yecha boshladim. Paypog'imni yechayotganimda negadir Nizom ham, u bilan g'ijillashayotgan «Dum» ham jimib qolishdi. Tuflimni bir chekkaga qo'yib, o'tirgan joyimda burilib qaradim-u, behush odamdek angrayib qoldim. O'n qadamcha narida Dilafrō'z turardi. Xuddi o'sha – tushlarimda ko'rgandek oppoq ko'ylak kiygan, sochlari chiroyli

O'tkir HOSHIMOV

Abjalning Dilafrō'zga kinoya qilishi vujudimni qaqshatib yubordi.

– Menga qara, o'v! – dedim ovozim titrab. – Gapni ko'paytirma. Boshladik!

Abjal oyog'ini rels ustiga qo'ygancha tuflisining bog'ichini yecha boshladi. Shu payt hech kutilmagan voqea bo'ldi. Dilafrō'z «Dum» bilan Nizomning orasidan o'tdi-da, Abjalning yelkasiga qo'lini qo'ydi.

– Quloq soling.

Abjal boshini ko'tardi.

– Xo'sh?

– Men... – Dilafrō'z Abjalning boshiga xiyol egildi. Ko'zlarida allaqanday o't yonib turardi. – Men sizni yaxshi ko'raman. Shuni bilmoqchimingiz?

Quloqlarim shang'illab, ko'z o'ngim qop-qorong'i bo'lib ketdi. G'ira-shira tumanlik orasida Abjalning bir zum angrayib qolganini, keyin qaddini rostlaganini ko'rdim. Yuragim gursillab urayotganini, oyoqlarimdan mador ketib borayotganini sezib turardim.

Zum o'tmay qirrador toshlar ustiga cho'kkalab qoldim. Kechalari tushimga kirib chiqadigan Dilafrō'z shumi? Xayolimda bulutlar orasida suzib yuradigan Dilafrō'z shumi? Hozirgina osmonda uchib yurgan Dilafrō'z birdan yerga tushdi. Yo'q, yerdan ham pastroqqa tushib ketdi... Ana, u ketyapti.

Abjalning, hamma yomon ko'radigan, hamma jirkanadigan Abjalning qo'lidan tutib ketyapti! Bundan chiqdi, Abjal kecha bekorga gapirmagan, bundan chiqdi ilgariyam...

Abjal uning oppoq bilagidan tutib borar, u esa tas-madek rels ustidan dorbozlar-ga o'xshab ehtiyotkorlik bilan muvozanat saqlab yurib ketar edi. Go'yo bir umr shunday yuradigandek. Go'yo Abjal bir zum qo'lini qo'yib yuborsa, yiqilib ketadigandek. Bir necha qadam yurishgandan keyin u orqasiga burilib qaradi. Keyin yana... Men yuzimni chirt o'girdim-u, boshimni changal-lab qoldim.

Anchadan keyin hushim o'zimga keldi. Ro'paramda Nizom turardi. U aftimga tikilib turdi-da, qandaydir quruq ohangda so'radi:

– Qalay, o'lishingga arzir-kanmi?

– Senga nima! – dedim jinnilardek baqirib. – Sening nima ishing bor? Yo'qol, toshingni ter!

(Oxiri kelgusi sonda.)



qo'lini paxsa qilib, jahl bilan allanimalarni tushuntirar edi.

– Ketar jafosida otib olasanimi? – Abjal shunday dedi-yu, shishani chaqqon ochdi. Boshi ustida baland ko'targancha qulqillatib icha boshladi. U har yutinganida do'rdoq labining ikki chetidan qip-qizil vino sizib tushar, ko'ylagining yoqasidan toshib, pastga oqar edi. Turqi ko'zimga shu qadar jirkanch ko'rinib ketdiki, ijriganib yuzimni o'girdim.

Dilafrō'zni shunga topshirib qo'yamanmi? Shunga-ya! Undan ko'ra bir marta emas, o'n marta cho'kkanim yaxshi emasmi? Abjal vinoni ichib bo'ldi-da, kaftining orqasi bilan labini artidi. Shishani uloqtirib yubordi. Shisha temiryo'l chetidagi qirrador toshlar ustiga tushib, chil-chil sindi.

– Qani, tashla tangani! – Abjal «Dum»ga qarab qichqirdi. – Tashla, toleyimizni sinab ko'raylik!

«Dum» darrov jilpanglab yetib keldi.

– Mana bu 20 tiyinlik, – dedi qo'lidagi tangani ko'z ko'z qilib. – Qayog'ini tan-laysan?

Abjal kayfdan qizargan ko'zlarini suzib qo'l silkitdi.

da yana bir signal berdi-da, vagonlarni sudragancha guldurab o'tib ketdi. Yo'l chetidagi mazut sachragan, qovjirab qolgan o'tlar silkinib-silkinib tag'in qaddini rostladi. Zum o'tmay pastda yana Bo'rijar-niing guvullashi eshitila bosh-ladi.

– Gap bundoq, 20 tiyin deb yozilgan tomoni tushsa, Ergash birinchi bo'lib kalla tashlaydi. Orqasi tushsa – Abjal. – «Dum» shunday dedi-da, tangani chirillatib osmonga otdi.

– Mana, Nizom, sen ham ko'rl! – «Dum» shpalga tushgan tanga ustiga engashdi. – Qarasang-chil!

Nizom ikki temiryo'lning qoq o'rtasida karaxt bo'lib turar, chamasi, bu garovning shunchaki o'yin emasligiga haliyam ishonmas edi. Men bo'lsam allaqachon hukm qilingan odamdek xotirjam edim.

– Mana, o'zing ko'rl! – dedi «Dum» negadir quvonib. – «Chuv» tushdi. Birinchi bo'lib Ergash tashlaydi.

– Bekor aytibsanlar! – Nizom jon holatda baqirib yubordi. – Senlar Ergashni o'ldirmoqchisan!

Men qizib yotgan relsga o'tirdim-da, indamay tuflimning

turmaklangan Dilafrō'z turardi. U oq tuflisi bilan shpallarni bitta-bitta bosib yaqin kela boshladi. Nima bu? Oppoq bulutlarning menga qilgan so'nggi saxovatimi?

– Tinchlikmi? – dedi u yaqin kelib.

– Tinchlik, – «Dum» noqulay iljaydi. – Cho'milmoqchimiz.

Dilafrō'z menga o'girildi.

– Ergash, siz ham cho'milmoqchimisiz?

Men shundagina o'zimga keldim. Uning ro'parasida yalangoyoq, bema'ni alpozda o'tirganim uchun mulzam bo'lib, sekin o'rnimdan turdim. – Shunaqa, – dedim iloji boricha sovuqqon ohangda, – cho'milmoqchiman.

Dilafrō'z keskin Abjalga burildi.

– Nima, men ko'chada tushib yotgan chaqamanmi, orqamdan garov o'ynaysizlar?!

Dilafrō'z Abjalga gapirdi-yu, mening ichim muzlab ketdi. Uning bu qadar shiddatli ohangda gapirganini hech eshitmagan edim. Ko'zimni qayoqqa yashirishni bilolmay qoldim.

– Kim yetkazdi? – Abjal labini bir chekkasi bilan iljaydi. – Hech kim sizni chaqirgani yo'q-ku!



IIV BINOSI QANDAY QURILGAN?

Mamlakatimizda ko'plab tarixiy inshootlar qatorida davlat boshqaruvi tizimi bilan bog'liq ma'muriy binolarning qurilishi haqida ham qiziqarli ma'lumotlar talaygina. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining markaziy ma'muriy binosi shular jumlasidandir.

XX asrning birinchi yarmida asosiy kuch idoralari Toshkentning yangi markaziga yaqin hududda – hozirgi Amir Temur xiyoboni va Mustaqillik maydoni atrofida joylashgan edi. Ammo shaharning kengayishi hamda Ichki ishlar vazirligidagi islohotlar tufayli yangi, alohida binoga ehtiyoj tug'ildi. Shu bois Yakkasaroy tumani hududidan maxsus yer maydoni ajratildi. Loyihalashtirish va dastlabki qurilish ishlari 1965-yilda boshlandi. Bu jarayon o'sha davrdagi Ichki ishlar vaziri, general-leytenant Haydar Yahoyevning rahbarligida olib borildi.

Qurilish uchun tanlangan hudud Anhor kanaliga yaqin bo'lgani sababli quruvchilar yerosti suvlari bilan bog'liq muammolarga duch kelishdi. Shu sababli poydevor qismida murakkab gidroizolyatsiya ishlari amalga oshirilib, tuproq maxsus texnologiyalar asosida mustahkamlandi. Ushbu majmua loyihasi ustida respublikaning yetakchi loyiha muassasalaridan biri – «O'zNIIPshaharsozlik» (O'zbekiston shaharsozlik ilmiy-tadqiqot va loyiha instituti) mutaxassislari ish olib



borishdi. Loyihaning o'ziga xos xususiyati mustahkam temir-beton karkas, deraza teshiklarining aniq geometrik chizmasi va issiq iqlimga mos betondan tayyorlangan quyosh panjaralari bo'ldi.

Majmuaning bugungi ko'rinishi 1966-yildagi zilziladan so'ng Toshkentni keng ko'lamli tiklash va modernizatsiya qilish davrida shakllandi. Qurilayotgan bino seysmik chidamlilik (9 ballgacha) bo'yicha yuqori talablarni hisobga olgan holda zudlik bilan qayta loyihalashtirilishi kerak edi. Shu sababli poydevor ishlari biroz vaqtga kechiktirildi. Qayta loyihalashtirish jarayonida taniqli arxitektor Richard Blese institut muhandislari va arxitektorlari jamoasi bilan birga faol ishtirok etdi.

1965-yilda boshlangan Ichki ishlar vazirligi Markaziy apparati binosining qurilish ishlari 1971-yilda «Glavtashkentstroy» quruvchilari tomonidan to'liq yakunlandi. Vazirlik shaxsiy tarkibi yangi majmuaga ko'chib



o'tib, ish boshladi. Oradan uch yil o'tib, 1974-yilda bino ichida ichki ishlar organlarining birinchi idoraviy muzeyi ham tashkil etildi.

Ta'kidlash lozimki, yangi bino hudud qiyofasini tubdan o'zgartirib

yubordi. Boisi, ungacha bu yerda asosan past qavatli uy-joylar va mahallalar joylashgan edi. Keyinchalik bino atrofidan atqoli fan va madaniyat arboblari yor va uylar ajratildi. Xususan, akademik va bastakor Yunus Rajabiy aynan shu ko'chadagi uylardan birida yashab, ijod qildi.

Vazirlik binolari majmuasining tashkil etilishi 1970–1980-yillardagi keng ko'lamli shaharsozlik davri bilan chambarchas bog'liq. Majmua bir bosqichda emas, balki bosqichma-bosqich shakllanib, arxitektura uslublari evolyutsiyasi va idora funksiyalarining kengayishini o'zida aks ettirdi.

2000–2010-yillarda amalga oshirilgan keng ko'lamli rekonstruksiya ishlari davomida vazirlik binolari zamonaviy qurilish va pardoqlash materiallaridan foydalanigan holda tubdan modernizatsiya qilindi. Bugungi kunda mazkur yan-

gilangan majmua tarkibidan zamon talablariga moslashtirilgan shinam interyerlar munosib joy olgan.

G'ayratulla SHUKUROV,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan
madaniyat xodimi.

«Postda – Ha nocty – At the post»
GAZETASI KUZATUVCHILARI DIQQATIGA!

ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
BIRLASHGAN TAHRIRIYATI
@PostdaUz_bot
RASMIY TELEGRAM BOT
SAHIFASINI ISHGA TUSHIRDI.

SIZNING TAKLIF VA
FIKRLARINGIZNI
QABUL QILAMIZ

O'ZINGIZNI QIZIQTIRGAN
SAVOLLAR YUZASIDAN
HUQUQIY JAVOB OLING

YANADA TEZKOR, QULAY, ISHONCHLI
VA SAMARALI MULOQOT.

«Postda – Ha nocty – At the post»
GAZETASI SIZ BILAN YAQIN
HAMKORLIKKA TAYYOR!

ONA VATAN

*Har tonging biz uchun umidlar sari –
Tashlangan ishonchli dadil qadamlar.
Bag'ringda ulg'ayar orzular bari,
Bu yerda yashaydi baxtli odamlar.*

*Sen bergan mehringni his etar yurak,
Sening-la kuch topar har ezgu tilak.
Ajdodlar izidan boramiz dadil,
Biz uchun ochilgan jahonga yo'lak.*

*Sening osmoningda porlagan quyosh,
Qalblarda uyg'otar metindek bardosh.
Bir bo'lib intilsa bugungi avlod,
Dunyoga tanilar har umidli yosh.*

*Bugunning nafasi – ertangi imkon,
Ishonch bilan to'lgan qalblar begumon.
Bizdagi orzular ko'kni ko'zlagan,
Yuksalar noming ham, jon O'zbekiston.*



Farzona
KALANDROVA,
IIV 1-sonli
Toshkent akademik
litseyi o'quvchisi.

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir

podpolkovnik
Xurshidbek RO'ZIYEV

Bosh muharrir
o'rinbosarlari

podpolkovnik
Azizjon FAYZIYEV
mayor
Aziza BOHODIROVA

Mas'ul muharrir

Erkin SATTOROV

Veb-dizaynerlar

Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Navbatchilar

Adolat FAYZIYEVA
Yuliya MUSTAFAYEVA

TELEFONLAR:

71-231-33-88;

Obuna masalalari

bo'yicha:

71-231-38-74;

97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz
E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355



Tahririyat hisob raqami h/r
23402000300100001010.
Bank kodi 00014.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va
moliya vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v
460010860262877031101179003
STIR 200637499.

Gazeta O'zbekiston matbuot va
axborot agentligi tomonidan
2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam
bilan ro'yxatga olingan.

Manzilimiz: 100070, Toshkent shahri,
Shota Rustaveli 1-berk ko'chasi 9-uy.

Buyurtma № 2079.
Bosilish – ofset usulida.
Bichimi – A3.
Hajmi – 6 bosma taboq.
48528 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:

Yakka tartibda – 180.
Tashkilotlar uchun – 366.
Bosishga topshirish vaqti – 22.00.
Bosishga topshirildi – 21.00.
Sotuvda kelishilgan narxda.

«Kolorpak» MCHJ bosmaxonasida
chop etildi.

Korxona manzili: 100206
Yunusobod tumani,
Yangishahar ko'chasi 1A-uy.